

X. S. MUXITDINOVA, Ya. I. AVLAKULOV,
D. A. NURIDDINOVA

O‘ZBEK TILI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan
maktablarning 6-sinfi uchun
darslik sifatida tasdiqlagan

TOSHKENT
«YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS»
2017

UDK: 811.512.133(075)
81.2.O'zb.
M-92

MUXITDINOVA X.S., O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik/X.S.Muxitdinova, Y.I.Avlakulov, D.A.Nuriddinova.

- T.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. - 144 bet.

I. Muxitdinova X.S.

Taqrizchilar:

- S.Odilova** — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
- S.Maxsumova** — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
- Z.Salisheva** — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili kafedrasini mudiri.
- F.Aydarova** — Toshkent shahridagi 6-maktab o'qituvchisi.
- M.Akramova** — Toshkent shahridagi 61-maktab o'qituvchisi.
- R.Eshboyeva** — Toshkent shahridagi 178-maktab o'qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

Shartli belgilar:



— Bilib oling



— Savol va topshiriqlar



— Adabiy o'qish

ISBN 978-9943-366-96-1 «YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» M.CH.J, 2017

OBOD O'LKAM

(Aniq va mavhum, o'rin-joy otlari,
ularning yasalishi va imlosi)

1 - dars



1-topshiriq. Rasmni kuzating va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

- Ayting-chi, rasmda qanday binolar tasvirlangan?
- Poytaxtimizda qanday yangi inshootlar barpo etildi?
- Siz yashayotgan shahar yoki qishloqda-chi?

1-mashq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qiling.

Obod o'lka

Bizning Vatanimiz — **O'zbekiston Respublikasi**. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri **Markaziy Osiyo**dagi eng katta shahar. Bu yerda keng **ko'chalar**, chiroyli zamonaviy **uy**lar, qadimiy **obidalar** ko'p. **Respublikamizning** barcha

shahar va qishloqlarida **bunyodkorlik** ishlari olib borilmoqda. Eng chekka qishloqlarda ham yangi turar joy **binolari**, **litsey** va **kollejlar** qurildi, **sport majmualari** barpo etildi. Vatanimiz yildan-yilga obod boʻlib boryapti.

tinch — мирный	majmua — комплекс
farovon — благоустроенный	
bunyodkorlik — творение, созидание	
obod boʻlmoq — становиться благоустроенным	

2-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

1. Bizning Vatanimimiz qanday oʻlka?
2. Respublikamizdagi qaysi shaharlarni bilasiz?
3. Shahar va qishloqlarimizda qanday ishlar olib borilmoqda?



Otlar aniq va mavhum boʻladi. **Aniq otlar** biz koʻra va seza oladigan narsa-buyumlarni bildiradi. Ular birlik va koʻplik sonda keladi. Masalan: *shahar* — *shaharlar*, *bino* — *binolar* kabi. **Mavhum otlar** his-tuygʻular, shaxs-narsaga xos belgi nomlarini bildiradi. Masalan: *vijdon*, *mehr*, *ishonch*, *saxiylik* kabi.

2-mashq. Matnlarni oʻqing. Aniq otlarni daftaringizga koʻchirib yozing.

Men Gʻijduvon shahridanman. Shahrimiz tuman markazi hisoblanadi. Shahrimizda katta doʻkonlar, shifoxonalar va maktablar bor. Bu yerda har yili qurilishlar, obodonchilik ishlari

olib boriladi. Bu yil shahrimizda katta qo'shma korxonona qurildi. Maktabimiz qayta ta'mirlandi.

Men qishloqda yashayman. Bizning qishlog'imiz tog' etagida joylashgan. Uning tabiati chiroyli, havosi toza. Qishlog'imizdan katta soy ham o'tadi. Qishlog'imiz atrofida oromgohlar ko'p.



Adabiy o'qish

O'ZBEKISTON — ONAJON

Yer-osmonning orasi,
Olamning eng sarasi,
Avlod meros Vatanim –
Qadri baland bo'stonim.

Sahovatli, fidokor,
Dunyoda eng baxtiyor.
Sodiqlikda bolangga,
Tanilgansan olamga.

Oy husnda yetolmas,
Quyosh shaydo, ketolmas.
Ko'k toqingda yulduzlar,
Baxt taratar kunduzlar.

Bir yoningda Jayhundir,
Bir yonigda Sayhundir.
Mehringdir nur tarami,
Bag'ring dillar oromi.

Himmati hayotga teng,
Insonparvar, bag'ri keng.
Onajon, O'zbekiston,
Jonajon O'zbekiston.

(Qambar Ota)

Uyga vazifa. She'ni yod oling.

2 - dars

3-mashq. Maqollarni o'qing. Mavhum otlarni aniqlang.

1. Yurting tinch — sen tinch.
2. Tinchlik — baxt, sog'lik — taxt.
3. Yaxshilikka yaxshilik — har kishining ishidir.
Yomonlikka yaxshilik — mard kishining ishidir.



Mavhum otlar asosan birlik shaklda qo'llanadi. Ular **-lik, -ch, -inch** qo'shimchlari yordamida yasaladi. *Masalan: mardlik, ishonch, sevinch* kabi.

4- mashq. Berilgan so'zlarga mavhum ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shib mavhum otlar yasang.

1. Mustaqil ... , tinch ... , obod ... , do'st ... , quvon..., ishon..., bilimdon ... , farovon ... , sev ... , ahil ... , inoq

5-mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan mavhum otlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. ... insonning fazilatlaridan biri.
2. Shahar va qishloqlarda ... ishlari olib borilmoqda.
3. ... — sog'lik garovi.
4. Har birimiz o'lkamizning ... uchun mas'ulmiz.
5. Har doim ... bo'lsin!

Foydalanish uchun so'zlar: tejamkorlik, bunyodkorlik, tinchlik, tozalik, osoyishtaligi.



Adabiy o'qish

Men tug'ilgan o'lka

Men tug'ilgan hur o'lka Metall berar Bekobod,
Ozod Sharqda nur o'lka. Farhod GESdan el obod.
Ko'rkam qishloq, shahari, Nur olar har xonamiz,
Shod o'tar har mahali. Gullagan Farg'onamiz.

Xalqqa ust-bosh pillamiz,
Bebaho oq tillamiz.
Mevazor bog'-u bo'ston —
Serquyosh O'zbekiston.

(Qudrat Hikmat)

hur — свободный
bebaho — бесценный
bog'u bo'ston — цветовой сад

mahal — время
pilla — кокон
nur — луч

Uyga vazifa. She'ni yod oling.

3 - dars

3-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

— Mening ismim Doniyor. Men Namangan shahridanman.

— Men esa Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahridan kelganman. Shahrisabzda buyuk Amir Temur bobomiz tug'ilgan.

— ...

6-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Biz yozda "Quyoshli" **oromgoh**ida dam oldik. **Oromgoh**

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Oqtosh tog'i etagida joylashgan. **Atrof** juda xushmanzara. **Tog' yon bag'irlaridagi o'tloqlar, archazorlar** bilan qoplangan. Oromgoh etagidan katta soy oqib o'tadi. Har kuni tog' yon bag'irlariga chiqdik, muzdek suvda maza qilib cho'mildik. Bolalar bilan turli o'yinlar o'ynadik, musobaqalar o'tkazdik. Oromgohda ko'p do'stlar orttirdik.



O'rin-joy otlari tub va yasama bo'ladi. Yasama o'rin-joy otlari **-loq, -zor, -iston, -goh, -xona, -obod** qo'shimchlari bilan yasaladi. Masalan:

tub otlar: vodi, maktab, hovli;

yasama otlar: o't+loq, Gul+iston, orom+goh

7-mashq. Berilgan so'zlarni ikki guruhga ajratib ko'chiring.

Toshkent, maktab, gulzor, vodi, Samarqand, qishloq, tog', oromgoh, Oqtepa, shahar, Chimyon, Xiva, ko'cha, o'tloq, Bodomzor, daraxtzor, Olmaliq, Chinoz, Chinobod.

Tub otlar:

Yasama otlar:

8-mashq. Qavs ichidagi so'roqlar o'rniga mos o'rin-joy otlarini qo'yib yozing.

Men (*qaysi?*) viloyatda yashayman. Viloyatimizda (*qanday?*) oromgohlar bor. Yozgi ta'tilda singlim bilan (*qaysi?*) oromgohida dam oldim. Bu oromgoh (*qaysi?*) tog' etagida joylashgan. Men oromgohda (*qanday?*) to'garagiga qatnashdim. Har kuni sayohatlarga chiqdik, turli (*qanday?*) o'simliklar bilan tanishdik.



Adabiy o‘qish

Oromgohdagi voqea

Jasur yozgi ta’tilni oromgohda o‘tkazdi. Oromgoh tarbiyachisi Mahmud aka bolalarni tog‘ bag‘riga sayohatga olib bordi. Ular ko‘l bo‘yidagi o‘rmon yoqasida to‘xtashdi. Jasur olma sharbatini ichib, bo‘shagan qutichani ko‘lga otdi. Mahmud aka:

— Jasur, bu ko‘l baliqlar va boshqa jonivorlarning uyi. Sen chiqindilarni otib u yerni iflos qilsang, ularga jabr bo‘ladi, — dedi.

Jasur indamay nari ketdi. Cho‘ntagidan gugurt olib o‘ynay boshladi. Birdan gulxan yoqmoqchi bo‘ldi. Mayda shoxlarni kichkina do‘nglik ustiga to‘pladi. Qurib yotgan shoxlar yona boshladi. Shu payt do‘nglikning har tomonidan yugurib chiqqan chumolilar Jasurning oyoqlariga ham chiqib keta boshladi. Jasur oyoqlarini yerga urib, ularni tushirmoqchi bo‘ldi. Qoqilib ketib yiqilib tushdi va qo‘lini kuydirib oldi. Og‘riqdan baqirib yubordi. Uning ovozini eshitib Mahmud aka va bolalar yugurib kelishdi. Mahmud aka tezda olovni o‘chira boshladi. Bolalar chelakda suv olib kelib, gulxan ustiga sepishdi. Tutayotgan nam shoxlar orasidan chiqayotgan chumolilar og‘izlariga tuxum va g‘umbaklarni tishlagancha zir yugurishar edi.

Mahmud aka Jasurning qo‘liga dori qo‘ydi va:

— Chumolilarning qanday azob tortganini tabiat senga bildirib qo‘ydi. Shuni bilginki, hayotda hech narsa javobsiz qolmaydi. Bu sayohat senga yaxshigina saboq bo‘ladi, degan umiddaman, — dedi.

(“Diktantlar to‘plami”dan)

Uyga vazifa. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

KASBLAR

(Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va imlosi)

1 - dars



Bo'lay desang bog'bon Yo osmonda uchuvchi,
Yo Vatanga posbon, Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.

(Quddus Muhammadiy)

1-topshiriq. Savollar asosida suhbatlashing.

- Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
- Biror kasbni egallash uchun nima qilish kerak?
- Sizing oilangizda qanday kasb egalari bor?
- Siz kimga o'xshashni istar edingiz?

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Bizning oilamizda turli kasb egalari bor. Dadam **qu-ruvchilik** sohasida ishlaydilar. Onam esa **zardo'zlik** bilan shug'ullanadilar. Katta akam **duradgorlik** kas-

bini tanlagan. Opam **o'qituvchilik** kasbiga o'qiyaptilar. Meni esa **tarjimonlik** sohasi qiziqtiradi. Bobom bizga hamisha: «Bilim va hunar — chinakam xazina. Qaysi kasbni tanlasangiz ham o'z kasbingizning ustasi bo'ling», — deb uqtiradilar.

kasb — профессия

xazina — клад

hunar — ремесло

duradgorchilik — столярничество

tarjimon — переводчик

zardo'zlik — золотошвейя

usta — мастер



O'zbek tilida kasb-hunar, sohalarni bildiruvchi otlar **-lik, -chilik** qo'shimchalari bilan yasaladi. Masalan: quruvchi**+lik**, zardo'z**+lik**, binokor**+lik**; dehqon**+chilik**, pazanda**+chilik**, kulol**+chilik**.

2-mashq. Berilgan so'zlarga **-lik, -chilik** qo'shimchalaridan mosini qo'shib, avval **-lik** qo'shimchali so'zlarni, so'ng **-chilik** qo'shimchali so'zlarni yozing.

Dehqon, sotuvchi, kon, quruvchi, rassom, paxta, san'atkor, shifokor, to'quvchi, nonvoy, dorboz, suvchi, gilamdo'z, ovchi, haydovchi, qandolatchi.

3-mashq. Matnni o'qing. Aniq va mavhum otlarni aniqlab, ikki guruhga bo'lib yozing.

Dam olish kuni o'qituvchimiz bilan yangi uylar qurilayotgan turar-joy dahasiga bordik. Qurilish boshlig'i bizga quruvchilik kasbi haqida so'zlab berdi. Avval uylarning loyihasi chizilar ekan. So'ng moliyaviy xarajatlar hisoblab chiqilar ekan. Keyin

uy-joy qurilishi uchun qurilish mollari ajratilib, quruvchilar ish boshlashar ekan. Ko'p qavatli uyning devorlari bizning ko'z o'ngimizda qad ko'tardi. Men quruvchilik kasbiga qiziqib qoldim.


moliya — финанс
turar-joy — местожительство

loyiha — проект
daha — квартал

2-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

- Qayerdan kelyapsan?
- Maktabimiz ustaxonasidan.
- U yerda nimalarni o'rganasiz?
- Duradgorlikni o'rganyapmiz. O'zing qayerdan kelyapsan?
- Men ham to'garakdan kelyapman. Yozgi ta'tilda o'yamkorlik to'garagiga qatnagan edim.
- ...

4-mashq. Berilgan so'zlarni bir-biriga bog'lab, ilm va hunar haqida maqollar hosil qiling.





Adabiy o'qish

Hunarmand

Qo'lida cho'tka, moyi,
Doim ochiq chiroyi.
Bo'yoqchi Turg'un tog'am
Yetmish hunarda bekam.
U bo'yagan rom, beshik,
Tunukali tom, eshik,
Devorga chizgan naqshi,
Qanday charaqlar yaxshi.
Tog'am kabi serhunar

Bo'lsang, hunardan unar.
O'zlari xo'p o'qigan,
Ertak, she'rlar to'qigan.
Yana usta pazanda,
Qo'shiqchi ham sozanda.
Uning yopgan shirmoyi,
To'lin oyday chiroyi.
Bo'yoqchi Turg'un tog'am
Yetmish hunarda bekam.

(Obid Pasul)

Uyga vazifa. “Men ... bo'lmoqchiman?” mavzusida so'zlab bering.

2 - dars

5-mashq. Matnni o'qing. Kasb-hunar otlarini ko'chirib yozing va yasalishini tushuntiring.

Zardo'zlik fabrikasida

Buxoro zardo'zlik fabrikasi jahonga mashhur. Fabrikada so'zanachilik, do'ppichilik, kashtachilik bo'limlari mavjud. Ularda asosan xotin-qizlar ishlaydilar. So'zana, do'ppi va kashtalarning yuzlab turlari bor. Biz darsdan keyin fabrikaga borib, so'zanachilar, do'ppido'z va kashtachilarning ishlarini kuzatamiz. Menga ko'proq so'zanachilarning ishlari yoqadi. Sinfdoshim Madina esa zardo'zlikka qiziqadi.

3- topshiriq. Rasm asosida suhbatlashing.



6- mashq. Matnni o‘qing. Kasb-hunar otlarini aniqlab yasalishini tushuntiring.

Sinfoshimiz Go‘zal “Eng yosh hunarmand” tanlovida g‘olib bo‘ldi. Go‘zal yoshligidan gilamdo‘zlik hunariga qiziqar edi. U opasi bilan mahallasidagi Zaynab opaga shogird tushgan. Mohir gilamdo‘z bo‘lish uchun naqqoshlik va kashtachilikni ham bilish kerak ekan. Shuning uchun Go‘zal maktabimizdagi kashtachilik to‘garagiga ham qatnashadi. Biz bu hunarmand sinfdoshimiz bilan faxrlanamiz.



Adabiy o‘qish

Hamma hunar sevimli

Hunarning yomoni yo‘q,
Biri biridan ulug‘.
O‘qitmasa ustozlar,
Yo bo‘lmasa oshpazlar,
Davolamasa doktor,

Novvoylar non yopmasa,
Yo dehqon yer chopmasa,
Bastakor yozmasa kuy,
Yo cho‘pon boqmasa qo‘y,
To‘qimasa to‘quvchi,

Rol o'ynamasa aktyor,
Qo'shiq yozmasa shoir,
Kitob bitmasa noshir,
Kasblar ko'p, xullas kalom,
Sanab bo'lmas nomma-nom.
O'ylang, hayot ne bo'lar?!
Biri bo'lmasa agar,

Yo tikmasa tikuvchi,
Quruvchilar qurmasa,
Sportchi yugurmasa...
Biri biriga eshdir,
Shu sabab ishlar "besh"dir.
Yigitga oz yetmishi,
Yuz hunarli – er kishi.

Yoshlik yugurib o'tar,
Kasb egallang, yosh do'stlar!

(Olqor Damin)

Topshiriq. She'rni o'qing, undagi kasb-hunar otlarini aniqlang.

quduq — колодец
nomma-nom — поименно
qazimoq — копать
o'ymakorlik — гравировка
me'morchilik — зодчество
gilamdo'zlik — ковроделие
binokorlik — профессия строителя
naqqoshlik — живописное дело
kulolchilik — профессия гончара
ganchkorlik — штукатурное дело
tasviriy san'at — изобразительное искусство

Uyga vazifa. Sizga qaysi hunar yoqishi haqida so'zlab bering.

KUTUBXONADA

(Shaxs va narsa-buyum otlari,
ularning yasalishi va qo'llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Suhbatni o'qing va berilgan rasmlar asosida davom ettiring.

Kutubxonada

- Assalomu alaykum!
- Vaalaykum assalom! Keling.
- Kutubxonaga a'zo bo'lsam bo'ladimi?
- Albatta, mana bu ma'lumotnomani to'ldiring.
- Xo'p. Mana, marhamat.
- Juda yaxshi. Qaysi kitobni beray?
- Menga...



Shaxs otlari insonlarning kasbini bildirib keladi. Ular tub va yasama bo‘ladi. Yasama shaxs otlari **-chi, -kor, -bon, -soz, -shunos, -paz, -gar, -dor, -do‘z, -kash, -dosh** qo‘shimchalari bilan yasaladi. Masalan:

ishchi

zargar

paxtakor

chorvador

bog‘bon

etikdo‘z

soatsoz

dorboz

oshpaz

sinfdosh

1-mashq. Tub va yasama shaxs otlarini aniqlang. Yasama shaxs otlarini yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra guruhlarga bo‘lib ko‘chiring.

O‘qituvchi, san’atkor, sportchi, hamshira, xonanda, shifokor, aloqachi, soatsoz, dehqon, kimyogar, qo‘shiqchi, shoir, haydovchi, muhandis, rassom, haydovchi, quruvchi, zargar, tilshunos, gilamdo‘z, sotuvchi, uchuvchi.

2-topshiriq. Rasmlarda berilgan shaxslarning kasbini aniqlang va har biri haqida qisqa so‘zlab bering.





2-mashq. Berilgan soʻzlarga **-chi, -kor, -paz, -soz, -dosh, -bon** qoʻshimchalaridan mosini qoʻshib, shaxs otlarini yasang.

Osh, paxta, parta, gul, sinf, soat, darvoza, sir, bogʻ.



Adabiy oʻqish

Jonajonim kitobim

Saodatga boshlaysan,
Quyoshlarga oʻxshaysan,
Qoʻlimdan hech tushmaysan,
Qadrdonim kitobim!

Asli oddiy qogʻozsan,
Ustozimga ustozsan,
Senga atab sheʼr yozsam,
Mehribonim kitobim!

Sen olimsan, shoirsan
Dars berishga mohirsan,
Koʻzlarimizga nursan,
Jonajonim kitobim!

(Olqor Damin)

Uyga vazifa: She'rni ifodali o'qing. She'r matnidan foydalanib, tushirib qoldirilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib yozing. Qaysi so'z necha marta takrorlanganligini ayting.

Saodatga ,	Asli oddiy
Quyoshlarga	Ustozimga
Qo'limdan hech	Senga atab she'r yozsam,
Qadrdonim!	Mehribonim!

Sen olimsan, ,
 Dars berishga,
 Ko'zlarimizga,
 Jonajonim!

2 - dars



3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

- Qayerdan kelyapsan?
- “Bolalar ijodiyoti uyi” dan. O'zing-chi?
- “Ma'rifat markazi”dan kelyapman. U yerdagi elektron kutubxonadan turli mamlakatlar haqida ma'lumot olmoqchi edim.
- Elektron kutubxonaning boshqa kutubxonalardan qanday afzalliklari bor?
- Bu kutubxonadan bir necha daqiqada istalgan ma'lumotni olish mumkin.

— Men ham elektron kutubxonaga a'zo bo'lishim mumkinmi?

— Albatta...



Harsa-buyum otlari tub va yasama bo'lishi mumkin. Yasama narsa-buyum otlari **-don, -gich (-g'ich), -k, -q, -oq, -gi, -m, -im, -ma** qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi. Masalan: **guldon, muzlatgich, chizg'ich, elak, taroq, supurgi, to'plam, kiyim, tugma.**

3-mashq. Narsa-buyum otlarini ma'no guruhlariga ajratib yozing.

Kiyim-kechak nomlari	Oziq-ovqat nomlari	Hayvonlar nomlari	Idish-tovoqlar nomlari	Ish qurollari nomlari	O'simlik nomlari

Do'ppi, palov, arra, sho'rva, piyola, lola, sher, go'sht, chizg'ich, quyon, qozon, boychechak, ko'ylak, cho'mich, palto, supurgi, shim, tessa, tulki, bolta, rayhon, piyola, chuchvara.

4-topshiriq. Rasmlarda berilgan narsa-buyumlarni aniqlang va ularning har biri haqida so'zlab bering.



4-mashq. Gaplarni narsa-buyum otlari bilan to'ldirib yozing.

1. Yozuv stolim ustida ...lar turadi. 2. Stol tortmasiga... larni joyladim. 3. Darsga kerak bo'ladigan ... larni portfelimga soldim. 4. Kitob javonida ... lar turadi. 5. Zamira ... bilan ko'chani supurdi. 6. Jamila sariyog' va qaymoqni ...ga joyladi. 7. Geometrik figura chizishda kerak bo'ladi. 8. Guldastani ... ga solib qo'ydim.

5-topshiriq. She'riy topishmoqni yod oling.

Qat-qat, emas qatlama,
Bersang, emas qatlama.
Qatlamadan ham totli,
Atomdan ham qudratli.
Nur sochar, emas oftob.
Nomin o'zing o'ylab top? (Kitob)

Uyga vazifa. Maktab uchun zarur bo'ladigan o'quv qurollarining ro'yxatini tuzing.

3 - dars

6-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

— Bu sizning maktabingizmi?
— Ha, bu bizning maktabimiz.
— Maktabingizda fanlar uchun xonalar ajratilganmi?—
— Ha, xonalar ajratilgan. Ularda shu fan uchun kerakli barcha jihozlar bor. Masalan, ...

— Men qishloq maktabida o‘qiyman. Bizning maktabimizda ham laboratoriya xonalari, texnika vositalari bor. Yana



-q narsa-buyum oti yasovchi qo‘shimcha **a** unlisi bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda **a** unlisi **o** shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan:
tara+q –taroq, bo‘ya+q — bo‘yoq kabi.

5-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga narsa-buyum otini yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Dadam do‘kondan yangi muzlat... sotib oldilar. 2. Suz... va qatiqning inson salomatligi uchun foydasi ko‘p. 3. Ela... ham oshxona jihozi hisoblanadi. 4. Qir... yordamida sabzi sharbati tayyorlanadi. Stol ustida yelpi... turardi.

6-mashq. Nuqtalar o‘rniga 2-qatorda berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

...dosh, ...g‘ich, ...paz, ...shunos, ...kich, ...chi, ...don, ...kor, ...soz, ...qich, ...m, ...qi, ...im.

Gul, och, to‘plamoq, sinf, sovutmoq, kiymoq, osh, sport, paxta, elpimoq, soat, tuz, shifo, och, supurmoq.

7-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

— Qizlar, qayerdan kelyapsiz?



— Maktabdan. Shanba sinfimizda tozalik kuni deb e'lon qilingan.

— O'g'il bolalar maktab bog'ida belkurak va ketmon bilan daraxtlarning tagini yumshatishdi. — Biz sinfda ishladik. Men supurgi bilan xonani supurdim. Men ...



Adabiy o'qish

Kitob o'qishning hikmati

Ibn Sino har kuni tongda kutubxonaga kelib, kitob o'qish bilan band bo'lar edi. Uning bitta orzusi bo'lib, uni Xojaga aytishga negadir tili bormas edi. Chunki kutubxona sohibi rozi bo'lmasligini bilardi. Bir kuni Ibn Sino mutolaaga berilib ketib, kech bo'lganini bilmay qolibdi. Xoja esa uni allaqachon

ketib qolgan deb o‘ylab, eshikni qulflab uyiga jo‘nagan. Ertalab eshikni ochib kirsam, Ibn Sino kitob o‘qib o‘tirgan ekan.

— Ma‘zur tuting, taqsir, bilmay eshikni qulflab keta beribman.

— Sizga ko‘p rahmat bu ishingiz uchun, — dedi kulib Ibn Sino.

— Bundan keyin ham ustimdan qulflab keta bering. Men bu kecha xazina ichida yotdim ...

— Bunday qilishga mening haqqim yo‘q. Shuni ham aytib qo‘yayki, birorta kitobni uyingizga berolmayman.

Gap tamom. Endi hamma narsa ravshan. Kutubxona ishonchli qo‘lda. Ibn Sino buning uchun dildan xursand. Axir jahonda tengi yo‘q bu kutubxonani avaylab kelajak avlodlarga yetkazmoq kerak. Axir bu xazinani to‘plash uchun allaqancha yillar kerak bo‘lgan-ku!

(Maqsud Qoriyev)

mutolaa (qilmoq) — читать

ma‘zur tuting — извините

haq — право

tengi yo‘q — бесподобный

rozi bo‘lmoq — согласиться

ishonchli qo‘l(da) — в надёжных руках

Uyga vazifa. Hikoyaning mazmunini so‘zlab bering.

BILIM – XAZINA

(Belgilash va jamlash olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi)

1 - dars



Vatan iqbol kutar

Menda, senda, bizda - har bir o‘g‘il-qizda,
Yagonadir Vatan, asra uni har bir dam.
Mendan, sendan, bizdan – barcha o‘g‘il-qizdan,
Vatan iqbol kutar, bizga imkon tutar.

(Kavsar Turdiyeva)

1-topshiriq. Rasmni kuzating va she‘rni birgalikda o‘qing.
Olgan taassurotlaringiz haqida o‘zaro suhbatlashing.



Belgilash olmoshlari so‘roq olmoshlariga *har* so‘zini qo‘shib hosil qilinadi. Masalan: *har kim, har narsa, har qancha, har qaysi* kabi.

1-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi belgilash olmoshlarini ajrating va yasalishini tushuntiring.

1. Har kim bilim olish huquqiga ega. 2. Har bir tumanda ma'rifat markazlari barpo etilmoqda. 3. Yutuqlarimiz haqida har qancha gapirsak oz. 4. Bu o'lkada har narsa bordir, Ko'rmaganlar doim xumordir.(H.O.) 5. Har bir ishni mas'uliyat bilan bajarish kerak.

2-mashq. Foydalanish uchun berilgan belgilash olmoshlaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. ... kishining orzusi bo'ladi. 2. ... yozuvchining o'ziga xos uslubi bor. 3. ... ekanini o'radi. 4. Bilimdon, harakatchan o'quvchilarni maqtasa arziydi. 5. ... qiyinchilikdan so'ng rohat bor. 6. ... mahallada bolalar uchun sport maydonchalari qurilgan.

Foydalanish uchun: har qaysi, har qancha, har kim, har bir.

3-mashq. Matnni o'qing. **Bil** so'zidan yasalgan so'zlarni aniqlang va ma'nolarini tushuntiring.

Kuch — bilimda

Kitob barcha bilimlar manbai. Bilim esa barcha sirlarni ochuvchi kalitdir. Mamlakat ishiga yordami eng ko'p tegadigan kishilar, avvalo, bilimli va donishmand kishilardir. Bilim insonlarni hamisha yaxshilik qilishga yo'llaydi. Jahonda bilimdan kuchli narsa yo'q. Bilimdon insonlar hamisha elda aziz bo'lganlar va hurmat qozonib kelganlar.

aql-idrok — ум-разум
insoniyat — человечество

yo'llamoq — направлять
qozonmoq — удостоиться

2-topshiriq. “Kuch — bilimda” matnidan foydalanib, berilgan gaplarni davom ettiring.

1. Jahonda eng ulug', eng kuchli narsa (nima?).
2. Bilim insonlarni (nimaga?) yo'llaydi.
3. (Kimlar?) mamlakat ishiga yordami ko'p tegadigan kishilardir.
4. Bilimli, dono va shijoatli insonlar (nimaga?) katta hissa qo'shishgan.

Uyga vazifa. Sizga qanday kitoblar yoqadi? So'zlab bering.

2 - dars

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

— Sen qaysi fanga ko'proq qiziqasan?

— Fizika fani juda qiziqarli ekan.

— Menga o'zbek tili fani yoqib qoldi. O'qituvchimiz yaxshi tushuntirar ekanlar.

— Menga esa geografiya fani juda yoqadi. Turli mamlakatlar, ularning tabiati haqida bilib olasan.

— Unda fanlar bo'yicha bilimlar bellashuvi o'tkazamiz.

— Juda soz!



Jamlash olmoshlariga **hamma, barcha, bari, jami** soʻzlari kiradi. Ular narsa-buyumlar va shaxslarni jamlab koʻrsatadi.

4-mashq. Gaplarni koʻchiring. Olmoshlarni aniqlab, maʼnolarini tushuntiring.

1. Azamat kitob, daftar, qalam, ruchkasini – barcha oʻquv qurollarini papkasiga soldi. 2. Sayyora, Madina va Lobar — hammalarini mehmonga chaqirdim. 3. Uy, hovli, koʻchalarni —hamma joyni tozalab supurdi. 4. Yigirma toʻrtga yigirma beshni qoʻshsak, jami qancha boʻladi? 5. Ustoz, bizga bergan bilimingiz, maslahatingiz – bari uchun sizdan minnatdormiz. 6. Hamma narsaning otasi – mehnat.

5-mashq. Nuqtalar oʻrniga jamlovchi olmoshlarni qoʻyib gaplarni koʻchiring.

1. Maktabimizda bichish-tikish, duradgorlik, rassomlik, musiqa va raqs — ... toʻgaraklar bor. 2. Hovlimizda oq, qizil, pushti, sariq — ... rangli gullar ochilib yotibdi. 3. Marat, Murod, Botir — ... duradgorlik toʻgaragida ustachilikni oʻrganyapmiz. 4. ... sinf sardorining nima deyishini kutib turar edi. 5. Oʻqituvchimiz aytganlari uchun ... darsdan keyin maktab hovlisiga toʻplandik.

4-topshiriq. Maqollarni oʻqib, maʼnosini tushuntirib bering.

Kitobdan yaxshi do'st yo'q.

Kitob — bilim manbayi



Adabiy o'qish

Kitob bizniki!

Kutubxona kitobin
Qoravoy yirtib qo'ydi.
— Nega yirtding? — deb Vali
Jizg'anak bo'lib kuydi.
— Maktabniki kimniki?
Bizniki, hammaniki!
Qoravoy o'rtoq, bilsang,
Bir cheti-chi, seniki!
Ishchi, xizmatchi, dehqon
Peshona terisidan!
O'z ota-onamizning
Mehnatining izidan.
Shunday ekan, kitobni
Ne uchun saqlamaysan?
Har kitob olgan bola
Oz-ozdan yirtaversa,
Mingta qo'ldan o'tganda
O'zing aytgin ne bo'lsa?

— Senga ne alam qilar,
O'zingnikimi edi?
Maktab kutubxonasin
Kitobi-ku bu! — dedi.
Ming birinchi bolaga
Kitob kerak emasmi?
Yirtiq kitobni ko'rib,
Qo'ling sinsin demasmi?
Maktab, kutubxonalar
Kitobni olar qaydan?
Kitobga ketgan sarflar
Unardi qaysi joydan?
Ota-onang mehnatin
Hurmatlab yoqlamaysan?
Sen yirtgan shu kitob
Maktabniki, bizniki!
Qoravoy o'rtoq, bilsang,
Bir cheti o'zingniki!

(Quddus Muhammadiy)

Uyga vazifa. She'ni ifodali o'qing va olmoshlarni aniqlang.

3 - dars



6-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Kutubxonada

Bu — maktabimiz kutubxonasi. **Biz** darsdan keyin sinfdoshlarimiz bilan kutubxonaga kiramiz. **Har bir** o‘quvchi **o‘zini** qiziqtirgan kitoblarni olib o‘qiydi. **Menga** ko‘proq sarguzasht asarlar yoqadi. Sinfdoshim Madina she‘riy kitoblarni yaxshi ko‘radi. Asadbek o‘simliklar haqidagi kitoblarni olib o‘qiydi. Kutubxonachi **har qaysimizga** kerak kitoblarni topib berdilar. **Hammamiz** xursand bo‘lib uyga ketdik. Kitob — bizning eng yaqin do‘stimiz.



Belgilash va jamlash olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib, gapda turli vazifalarni bajarib keladi. Masalan: **Hammaning** bir istagi bor. Dunyoda **hamma** xursand va baxtiyor bo‘lib yashasin.

7-mashq. Gaplarni o‘qing. Olmoshlarning turi va qo‘llanishini tushuntiring.

1. Dadam har birimizga yangi papka va yangi kiyimlar olib berdilar. 2. Maktabimizda hamma o'quvchilarga kitoblar tekinga beriladi. 3. Yozgi ta'tildan so'ng har birimiz maktabimizni, sinfdoshlarimiz, o'qituvchilarimizni sog'inib kelimiz. 4. O'qituvchimiz har birimizdan yozda qanday dam olganimizni so'radilar.

8-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib gaplar tuzing.

1. Devorlarida, barcha, suratlari, sinfimiz, ilingan, yozuvchilarning.

2. Darsdan, har, tanaffus, keyin, daqiqalik, bo'ladi, besh.

3. Tili, biz, o'zbek, darslarida, gapni, har bir, to'g'ri, va, to'g'ri, tuzishni, o'rganyapmiz, yozishni.

4. Hammamiz, maktabda, singlim, she'rlarini, o'rgangan, yoddan, har kuni, kechqurun, aytib beradi, yig'ilganimizda.



Adabiy o'qish

Kitob – xazinalar kaliti

Bir kishining uchta o'g'li bor ekan. U topgan-tutganlarini ularga taqsimlab bermoqchi bo'lib, shunday debdi:

— Sizlarga bir hovuch tilla, suruvdagi qo'y-u qo'zilar va bir dasta kitob qoldirmoqchiman. Kim nimani tanlaydi?

Katta o'g'il o'zini tillaga uribdi. O'rtanchasi qo'y-u qo'zilarni olibdi. Kichik o'g'ilga kitoblar qolibdi. Katta o'g'il boyligini ko'paytirish uchun oltinlarini bir savdogarga beribdi. O'rtancha aka qo'y-u qo'zilarini ko'paytirishni o'ylabdi.

Akaları „Kitobdan ne foyda?“ – deb ukalarining ustidan kulishibdi. Kenja o'g'il esa hamma kitobni o'qib chiqibdi. Katta

akalari kundan-kunga boyib ketaverishibdi. Shu orada yurtni yov bosibdi. Katta aka oltinlarini berishdan bosh tortgan ekan, dargʻazab boʻlgan podsho uning oltinlarini tortib olibdi. Oʻzini zindonga tashlatibdi. Kichik akasi qoʻy-u qoʻzilari bilan lashkarlarni boqishga majbur boʻlibdi. Kichik oʻgʻil: „Mening shu kitoblardan boshqa boyligim yoʻq!“ – debdi. Podsho uni dorga osishni buyuribdi. Shunda vazir: „Bu bolada bir gap bor“, – debdi-da, oʻrtaga tushib bola bilan savol-javob qilibdi. U barcha savollarga aniq javob beribdi. Shunda vazir podshoga:

— Bu koʻp kitob oʻqigan donishmand bola ekan. Agar uni oʻldirsangiz, laʼnatga qolasiz, — debdi.

Podsho uni qoʻl ostidagi hududlardan biriga boshliq etib tayinlabdi. Yigit kitoblardan olgan bilimi bilan ish tutib, yurtda adolat oʻrnatibdi.

(M. Murodov)

topgan-tutgan — находка

oʻtkir zehni — остроумный

adolat — справедливость

oʻrnatmoq — установить

dargʻazab boʻlmoq — разозлиться



Matn yuzasidan savollar:

1. Ota oʻgʻillariga nimani taqsimlab bermoqchi boʻldi?
2. Oʻgʻillar qanday ish tutishdi?
3. Podsho aka-ukalaga nisbaan qanday yoʻl tutdi?
4. Vazir podshoga nima dedi?
5. Ayting-ch, akalar toʻgʻri yoʻlni tanlashdimi?

Uyga vazifa. Rivoyatni oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.

TABIAT VA IQLIM

(Bo'lishsizlik olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar yordamida rasmdagi tabiat ko'rinishini tasvirlang.

Tayanch so'z birikmalari: baland tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, yashil archalar, toza havo, moviy osmon, pag'a-pag'a bulutlar

1-mashq. Matni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

O'zbekiston tabiati

O'zbekistonning tabiati juda chiroyli. O'lkamizda keng sahroyu dashtlar va baland tog'lar, sersuv daryolar va suvsiz cho'llar mavjud. Respublika tabiatini uch qismga bo'lish mumkin. Sharq va janubi-sharqda tog'lar va tog'oldi vodiylar. G'arbiy qismda — cho'llar va yarimcho'llar. Janubi-g'arb va shimoli-g'arbda

— tekisliklar bor. Tog‘ oldilarida keng adirlar, tog‘lar oralig‘ida pasttekisliklar — Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand pasttekisliklari bor.

(«O‘zbekiston ensiklopediyasi»dan)

sersuv — многоводный
yarimcho‘l — полустепь
pasttekislik — низкая равнина

sahro, cho‘l — степь
tog‘ oldi — пригорье
tekislik — равнина



Bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlariga **hech** so‘zini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Masalan: **hech kim, hech nima, hech qaysi, hech qancha, hech qanday, hech qayer** kabi.

2-mashq. Berilgan so‘zlarga avval **har**, keyin **hech** so‘zini qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling.

Kim, nima, qanday, qancha, narsa, qayer.

3-mashq. Matnni o‘qing. Bo‘lishsizlik olmoshlarini qo‘llangan gaplarni aniqlang.

O‘zbekistonning tabiatini hech qaysi yurt bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. O‘lkamizda baland tog‘lar, keng sahro-yu cho‘llar, vodiylar bor. O‘zbekiston, ayniqsa, o‘simliklar dunyosiga boy. Tog‘lar va daralarda har xil shifobaxsh o‘simliklar o‘sadi. Yurtimizda har bir faslning o‘ziga xos fayzi bor. Hech qayerning mevalari biznikichalik shirin emas.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbekiston hududida qanday tog'lar, cho'llar va vodiylar bor?
2. Respublikamizda qanday o'simliklar o'sadi?
3. Hududimizdan qaysi daryolar oqib o'tadi?



Adabiy o'qish

O'zbekiston

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston...
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar qoshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.

Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda qushlar g'azal to'qiydi.
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.
Bu shundayin ajib diyordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.

(Hamid Olimjon)

Uyga vazifa. She'ni yod oling. She'rda tasvirlangan tabiat manzaralari haqida so'zlab bering.

2 - dars


4-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

O'zbekiston iqlimi

O'zbekiston ochiq dengiz havzalaridan ancha uzoqda joylashgan. Bu yerning iqlimi issiq va quruq. Bu mintaqada yil davomida yog'ingarchilik kamroq, quyoshli kunlar ko'proq bo'ladi. Qish sovuq, yoz esa issiq va davomli bo'ladi. Eng sovuq oy yanvar, eng issiq oy esa iyul oylaridir.

(«O'zbekiston ensiklopediyasi»dan)

3-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Turli fasllarda tabiat va iqlimda yuz beradigan o'zgarishlarni tasvirlang.






Bo'lishsizlik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanganda ayrim bo'lishsizlik olmoshlarga avval egalik qo'shimchalari, so'ngra kelishik qo'shimchalari qo'shilib keladi. Masalan:

<p><i>hech qaysi</i> <i>hech bir</i> <i>hech qayer</i></p>	}	<p>+ imiz + -ni, -ning, -ga, -da, -dan</p>
--	---	---

5-mashq. Olmoshlarni berilgan so'zlar bilan almashtirib, namunadagidek gaplar tuzing.

Har birimiz, hech biringiz, hech qaysingiz

Namuna: Har birimiz qovunlarni uzdik.



6-mashq. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib yozing.

Hosil bayrami

Kuz faslida (*har yili, yil bo'yi*) yetishtirilgan mo'l hosil yig'ib-terib olinadi. (*Har yili, hech qachon*) kech kuzda respublikamizning (*barcha, har bir*) shaharlarida hosil bayrami o'tkaziladi. Hosil bayrami kunlari mevalar va poliz ekinlari savdosi tashkil etiladi. Savdo rastalarida (*turli, hech qancha*) viloyatlardan olib kelingan uzum, anor, olma, nok, anjir, qovun, tarvuz, kartoshka, piyoz, sabzi, turp kabi mevalar va poliz ekinlari arzon



narxlarda sotiladi. Dehqonlar yetishtirgan hosillarini (*barcha, har bir*) shaharliklarga in'om etadilar.



Adabiy o'qish

Tabiatni kuzating

Siz tabiatni, o'simliklar dunyosini kuzatganmisiz? Daraxt yaproqlari qanday paydo bo'lishini, gul butoqlaridan mevalar qanday hosil bo'lishini, gullarning qanday ochilishini bilasizmi?

Men gullarni juda sevaman. Uzoq vaqt o'tirib ularni kuzataman. Namozshomgullarning ochilib-yopilishi, atirgul g'unchalarining sekin-asta kattalashishini ko'rish kishiga zavq bag'ishlaydi. Gullar o'zlarini yummaydi, mushaklari charchamaydi, ammo ular ham biz kabi dam oladi. Ular ham tunda uxlashadi. Kun bo'yi quyosh nurlaridan oziq oladi va shu oziq bilan o'sadi. Ular ishlamaydilar va kunni kutib uxlaydilar.

Uyga vazifa. O'zingizga yoqqan fasl haqida so'zlab bering.

TABIATNI ASRANG

(Gumon olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi)

1 - dars

1-topshiriq. Rasmdan foydalanib, tabiat manzarasini tasvirlab bering.



1-mashq. Matni o'qing. Olmoshlarni aniqlab, ma'nosini tushuntiring.

Tabiatni asrang

Atrofimizdagi hamma narsa: osmondagi quyosh, oy, yulduzlar, tog'lar, tekisliklarning hammasi tabiatdir. O'simliklar, hayvonlar va odamlar – hamma shu tabiatda yashaydi. Shuning uchun har birimiz tabiatni zararli narsalardan asrashimiz, unga zarar keltirmasligimiz kerak. Kim tabiatga zarar keltirsa, yomon oqibatlarga olib keladi.



Gumon olmoshlari shaxs va narsa-buyum, ularning belgi, miqdori, o'rnini, payti noaniqligini bildiradi. Ular so'roq olmoshlariga **-alla** yoki ulardan keyin **-dir** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. *Masalan: **allakim - kimdir, allanima - nimadir, allaqaysi - qaysidir, allaqanday - qandaydir, allaqachon - qachondir** kabi.*

2-mashq. Berilgan so'zlarga **-alla** yoki **-dir** qo'shimchasini qo'shib, gumon olmoshlarini hosil qiling.

Kim, nima, qanday, qancha, qaysi, qachon, qayer.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga gumon olmoshlarini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Qorong'ida yaltirab ko'rindi.
2. Uzoqdan ovozi eshitildi.
3. Havoning sovishi haqida ... xabar kelgan edi.
4. Nodir ... yozib o'tirardi.
5. Kitob do'konidan ... kitob oldi.
6. Mohira Azizaning qulog'iga ... shivirladi.

2-topshiriq. O'qing. Bunday vaziyatlarda siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

1. Siz koridorda o'tib ketyapsiz, hech kim yo'q xonada chiroq yonib turibdi. Siz qanday yo'l tutasiz?
 - A. E'tibor bermaysiz.
 - B. Chiroqni o'chirasiz.
 - D. Shu sinf o'quvchilarini ogohlantirasiz.
2. Uyingizda chiqindilar ko'payib ketdi, uni olib ketuvchi mashinadan esa darak yo'q. Siz nima qilasiz?

- A. Tegishli joyga arz qilasiz.
- B. Chiqindilarni qopga solib, chetroqqa olib borib tashlaysiz
- D. Chiqindilarni qopga solib, chiqindixonaga olib borib tashlaysiz.

Uyga vazifa. Tabiatni asrash uchun nima qilish kerak? Takliflaringizni yozing.

2 - dars

4-mashq. Matnni o'qing va munosabat bildiring.

Atrof-muhitni muhofaza qilish

Tabiat bizni o'rab turgan atrof-muhitdir. Biz shu tabiatda yashaymiz, shuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiya me'yorlariga rioya qilishimiz shart. Avvalo, suv zahiralardan oqilona foydalanish kerak. Ariqlar, anhorlar, daryo va ko'llarga axlatlarni tashlamaslik kerak. Bunday holatlarga qarshi barchamiz kurashishimiz zarur.



Alla so'zi bilan yasalgan gumon olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi mumkin. Masalan:

allakim

allanima + **-ni, -ning, -ga, -da, -dan**

allanarsa

5-mashq. Nuqtalar o'rniga *kerak, shart, zarur* so'zlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Har bir inson o'z burchini bilishi 2. Tabiatni asrash uchun suv va havoni ifloslantirmaslik ... 3. Sog'lom bo'lish uchun quyidagilarga e'tibor berish ... :

- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish ...;
- sport bilan shug'ullanish ...;
- zararli odatlardan voz kechish

6-mashq. Matnni nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan olmoshlardan mosini qo'yib o'qing.

... havodagi kislorod bilan nafas olib, nafas chiqaramiz. ... inson yaxshi nafas olishi uchun havo kislorodga boy bo'lishi kerak. Agar havoda kislorod yetishmasa, ... o'zini horg'in sezadi. Atrofimizdagi har bir daraxtlar, o'simliklar iflos havoni to'sib, o'zi chiqargan kislorod bilan havoni tozalab turadi. Changli havodan nafas olish ham o'pka uchun zararli hisoblanadi. Agar ... ko'chani changitib ketsa, darrov suv sepib changni kamaytirish kerak.

Foydalanish uchun: hamma, biz, o'zlari, kimdir, har bir.

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

O'qituvchi: Ekologiya nima va u haqda nimalarni bilasiz?

Bahrom: Ekologiya tabiat haqidagi fandir.

Alisher: Ekologiya insonlarning tabiatga, atrof-muhitga munosabatini ham o'rganadi.

O'qituvchi: Havoning inson salomatligiga ta'siri qanday?

Aziza: Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, salomatlikni saqlashda toza havoning ahamiyati katta. Shuning uchun hamma atrof-muhitning tozaligiga e'tibor berib turishi kerak.

O'qituvchi: Ekologiyani buzuvchi omillar nima?

Nodira: ...



Adabiy o'qish

Tabiatni avaylaymiz

Qushchalarni qiynamaymiz,
Qanotlarini yulmaymiz.
O'tlarni payhon qilmaymiz,
Tabiatni avaylaymiz!

Teraverib lolalarni,
Ranjitmaymiz odamlarni.
Sindirmaymiz bodomlarni,
Tabiatni avaylaymiz!

Ming xil giyoh, jonivorlar
Tabiatni qilar dilbar.
Keling, birga deylik, do'stlar:
Tabiatni avaylaymiz!

(Olqor Damin)

Topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing.



1. Tabiatni asrash kimlarning vazifasi?
2. Siz atrof-muhitni toza tutish uchun o'z hissangizni qo'shayapsizmi? Shu haqida so'zlab bering.

Uyga vazifa. She'rni yod oling.

QISH MANZARASI

(Sanoq va tartib sonlar, ularning yasalishi va imlosi)

1 - dars



1-topshiriq. Rasmlardan foydalanib, savollarga javob bering.

- Qish faslida ob-havo qanday bo‘ladi?
- Qishda bolalar qanday o‘yinlarni o‘ynaydilar?
- Sizga ko‘proq qaysi qishki o‘yinlar yoqadi?
- Qish faslida qanday bayramlar nishonlanadi?

1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Qish faslida

Yurtimizga qish fasli keldi. Qish **to‘rtinchi** fasl hisoblanadi. Hamma yoqni oppoq qor qoplagan. Hozir ta‘til vaqti. Uyimiz oldidagi maydonchada **beshta** bola sirpanchiq uchishyapti. Ukam bilan singlim chanada uchishdi. **To‘rtta** bola qorbobo yasashdi. Qorboboning bir qo‘liga hassa, **ikkinchisiga** katta qop ilib qo‘ydik.



Sonlar sanoq va tartibni bildiradi. Tartib sonlar sanoq sonlarga **-nchi**, **-inchi** qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi hamda **nechanchi?** so'rog'iga javob bo'ladi. Ular raqam bilan yozilganda chiziqcha [-] qo'yiladi. Masalan: 21- mart, 6-sinf.

2-mashq. Berilgan raqamlarni harflar bilan yozing. So'ng ulardan tartib sonlar hosil qiling.

Namuna: 5 - besh – beshinchi, ...

5, 7, 20, 21, 300, 318, 1000, 5614.

3-mashq. Barcha oylar va haftalar nomlarini namunadagidek izohlab chiqing. Tartib sonlarning yozilishiga e'tibor bering.

Namuna: Dekabr – qishning birinchi oyi, yanvar-...

4-mashq. “Raqamlar tilga kirganda” o'yinini tashkil qiling va berilgan raqamlarga mos ma'lumotlarni topib yozing.

1, 2, 4, 12.

Tabiatda: 1 - yil, 2- kun va tun, 4 – fasl, 12 – oy

Jamiyatda: 1. O'zbekiston; 2. katta daryolarimiz; 4. – bayroqdagi ranglar; 12. viloyatlar.



-nchi qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan ikki, olti, yetti, yigirma kabi sonlarga, **-inchi** qo'shimchasi esa undosh bilan tugagan barcha sonlarga qo'shiladi.

5-mashq. Berilgan raqamlarni tartib son shaklida o‘qing. So‘ng avval **-inchi** qo‘shimchasi bilan, keyin **-inchi** qo‘shimchasi bilan hosil qilingan sonlarni 2 guruhga ajratib yozing.

-inchi



birinchi, ...

-nchi



yigirmanchi, ...

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 90, 100.

6-mashq. Gaplarni o‘qing. Qavs ichida berilgan raqamlarni harflar bilan yozing.

1. Sinfdoshimiz Natasha maktabimizda o‘zbek tili bo‘yicha o‘tkazilgan bilimlar bellashuvida (1) o‘rinni egalladi.
2. Sinfimizda partalar (3) qatorga bo‘lib qo‘yilgan.
3. Men (1) qatordagi (2) partaning o‘ng tomonida o‘tiram.
4. Men (34) maktabning (6) sinfida o‘qiyman.
5. Men “Ayoz bobo” filmi (3) marta ko‘rganman.

Uyga vazifa. Qish fasli haqida so‘zlab bering.

2 - dars

2-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing. Sanoq va tartib sonlarning qo‘llanishiga e‘tibor bering.

— Bolalar, bir yilda 12 oy, bir oyda 4 hafta, 1 haftada 7 kun bor ekan. Kunlarning tartibi qandayligini ham aytib bering-chi?

— Birinchi kun - dushanba. Ikkinchi kun

— Juda yaxshi. Qani kim aytadi, qish faslida qanday bayramlarni nishonlaymiz?

—



Dona sonlar shaxs yoki narsa-buyumlarning aniq miqdorini bildiradi va **nechta?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Ular sanoq sonlarga **-ta** qo‘shimchasini qo‘shib yoki **dona, nafar, juft, dasta, tup** so‘zlarini qo‘shish orqali hosil qilinadi: Masalan: uchta, beshta, ikki juft, besh dona.

7-mashq. Berilgan sonlarni savollarga mos holda namunadagidek 2 guruhga bo‘lib ko‘chiring.

Necha?



ikki
o‘n

Nechta?



ikkita
o‘nta

Yigirma uch, ming, o‘nta, beshta, to‘rt, to‘qqizta, bir yuz besh, o‘n besh, qirqta, yigirmata, o‘ttiz ikki, oltmish uch, qirq to‘rt, yetmish besh, ellik olti, to‘qson bitta, uch yuzta, to‘rtta, uchta, yigirma yettita, o‘n, bir ming besh yuzta, bir ming to‘qqiz yuz to‘qson bir, ikki ming to‘qqiz, besh yuz, mingta.

8-mashq. Raqamlarni o‘qing. Ulardan avval dona sonlar, so‘ng tartib sonlar hosil qilib, daftaringizga yozing.

Namuna:



8, 9, 21, 31, 14, 56, 1, 2011.

9-mashq. Matnni o'qing. Dona sonlar va taqsim sonlarni aniqlab, qaysi so'zlarga bog'langanini ayting.

Bu yil bizning sinfimizga maktab bog'idan alohida joy ajratib berishdi. Navro'z kunlarida biz shu yerga ko'chat ekish uchun hasharga chiqdik. Bog'bon amaki 4 tup olma, 4 tup shaftoli va 4 tup gilos – jami 12 tup ko'chat berdilar. O'qituvchimiz 3 ta o'quvchiga bittadan ko'chat taqsimlab berib, ko'chatlarni o'tqazish joyini ko'rsatdilar. Men ko'chatni ushlab turdim. Zafar yerni chuqur kavlati, Odil esa suv quyib turdi. O'sha kundan beri har kuni ko'chatlardan xabar olib turibmiz. Ekilgan ko'chatlar kurtak chiqara boshladi.

3-topshiriq. Savollarga javob bering. Javoblaringizda qanday sonlarni qo'llaganingizni ayting.

- Bir yil necha fasldan iborat?
- Har bir fasl necha oydan iborat?
- Bir yilda necha oy, bir oyda esa qancha kun bor?
- Bir oyda nechta hafta, bir haftada esa nechta kun bor.
- Agar siz:

Bir kunda 10 ta o'zbekcha so'z o'rganib olsangiz, bir haftada nechta so'z o'rganib olasiz?

Bir oyda-chi? Bir yilda-chi?



Adabiy o'qish

Qish boboning hazili

Bir kun tongda qarasam,
O'rik, olma va olcham,
Hatto jajji niholcham
Oppoq gulga kiribdi.

Chopib chiqdim bog'imga
Rang-barang gul teray deb.
Va tergan gullarimni
Do'stlarimga beray deb.

Gul deb o'ylaganlarim
Bilsam, oppoq qor ekan.
Qish boboning shunchalik
Hazillari ko'p ekan.

(S. Jabbor)

Uyga vazifa. She'ni yod oling. Ayting-chi, Qish bobo qanday hazil qilibdi?

CHIMYON TOG‘LARIDA

(Chama va taqsim sonlar, ularning yasalishi va imlosi)

1 - dars



1-topshiriq. Rasmlarni kuzating va berilgan tayanch so‘zlar asosida o‘zaro suhbatlashing.

Tayanch so‘zlar: tog‘ tizmalari, qorli cho‘qqilar, ko‘m-ko‘k archazorlar, dam olish maskani, dam oluvchilar.

1-mashq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Chimyon tog‘larida

Chimyon tog‘ tizmalari respublikamizning eng so‘lim joylaridan biri. U yerda dam olish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Har yili Chimyonda **minglab** shaharliklar hordiq chiqaradilar. Chimyon yozda ham, qishda ham juda chiroyli bo‘ladi. Qishda bu joylarga qor nihoyatda qalin tushadi. Qishki ta‘til kunlarida chang‘i va chanalarda uchish uchun **minglab** yoshlar

Chimyonga yo'l oladilar. Chimyonga kelganlar tog' havosidan to'yib nafas olib, hordiq chiqaradilar.



1. Chimyonda kimlar hordiq chiqaradilar?
2. Dam olish kunlari va qishki ta'til kunlarida kimlar Chimyonga yo'l oladilar?



O'zbek tilida chama sonlar shaxs va narsa-buyumning taxminiy miqdorini bildiradi va sanoq sonlarga **-tacha, -larcha, -lab** qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi. Ular **qancha? nechtacha?** so'roqlariga javob bo'ladi. *Masalan:* Chimyonga har yili minglab odamlar dam olgani keladilar.

2-mashq. Berilgan raqamlarni harflar bilan yozing va ulardan chama sonlar hosil qiling.

10, 15, 25, 50, 100, 1000.

3-mashq. Qavs ichida berilgan sonlarni chama ma'nosida qo'llab gaplarni ko'chiring.

1. Maktabimizda (20) o'quvchi «Yosh alpinistlar» to'garagiga qatnashadi. 2. Sayohatga borish uchun (40) kishi to'plandi. 3. Oromgoh atrofiga (100) archa ko'chati o'tqazdik. 4. Tog' yonbag'rida (10) dam olish maskani joylashgan. 5. Yoz faslida (1000) odamlar tog'larda dam oladilar.



Ikkita sonni takrorlash yoki ***chamasi, yaqin, taxminan*** soʻzlarini sonlar bilan birgalikda qoʻllash vositasida ham chama sonlarni hosil qilish mumkin. **Masalan:** *oʻnga yaqin, chamasi qirq yoshlarda, taxminan ikkilarda, oʻn — oʻn besh, yuz — ikki yuz* kabi.

4-mashq. Qavs ichidagi raqamlarni chama son shaklida yozing.

1. Avtobus bekatida (10—15) odam yigʻilib turardi.
2. Akmalni guruh sardori qilib saylashdi, u endi (15) bolaga boshliq boʻldi.
3. Bayram tantanalari sport musobaqalarida bizning maktabimizdan (25) oʻquvchi qatnashdi.
4. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizni koʻrgani har yili (1000) sayyohlar kelishadi.

2-topshiriq. Grammatik topishmoqning javobini toping.

Minglab, oʻnlab ham yuzlab,
Oʻylab, talab, chamalab,
Olti soʻzda olti -lab,
Chama sonni top oʻylab.

Uyga vazifa. Savollarga yozma javob bering.

1. Maktabingizda qishki oʻyinlar boʻyicha qanday musobaqalar oʻtkaziladi?
2. Musobaqada maktabingizdan nechta oʻquvchi qatnashdi?
3. Nechta oʻquvchi gʻoliblikni qoʻlga kiritdi?

2 - dars

3-topshiriq. Suhbat matnini o'qing. Sonlarni aniqlang va turini ayting.

- Jahongir, qishki ta'til kunlari qayerda dam oldingiz?
- Qishki ta'til kunlari uch kunga Chimyonga borib keldik.
- U yerga kimlar bilan bordingiz?
- Sinfimizdan o'n sakkizta o'quvchi, sinf rahbarimiz va yana uch-to'rtta ota-onalar — jami yigirma beshtacha odam bordik.
- U yerda nimalar qildingiz?
- O'ntacha o'quvchi va kattalar osma yo'lda sayr qildik, qolganlar esa chang'i, chana uchishdi.
- Chimyonda qayerga joylashdingiz?
- Biz chang'i sport markaziga joylashdik.



Taqsim sonlar narsa-bujumning taqsimotini bildiradi va **-tadan** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Ular **nechtadan?** so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: *Bahorda har birimiz bittadan (nechtadan?) ko'chat o'tqazdik.*

5-mashq. Birinchi o'nlikkacha bo'lgan raqamlarni sanang, so'ng ulardan avval dona sonlar, so'ngra taqsim sonlar hosil qiling.

Namuna: bir- bitta, bittadan, ...

4-topshiriq. Maqollarni o'qing. Sonlarning qo'llanishini tushuntiring.

1. Birni birov bersa, mingni mehnat beradi.

2. Yetti marta o'lchab, bir marta kes.
3. Bir tup daraxt kessang, o'n tup ko'chat ek.

6-mashq. Matnni o'qing. Chama sonlarni aniqlang va o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozing.

Chimyonga sayohat

Anvar aka jiyani Otabekni ta'til vaqtida Chimyon sayohatiga olib chiqdi. Ertalab soat yettilarda yo'lga chiqib, taxminan bir soatcha yo'l bosishgach, Chimyonga yetib kelishdi. Otabek bunday xushmanzara yerlarni birinchi marta ko'rishi edi. Anvar aka rangli bo'yoqlar bilan to'rt-beshta manzara rasmini chiza boshladi. Otabek esa atrofni tomosha qildi. Tog' tepasiga qarab ketgan so'qmoq yo'lda yigirma-o'ttiztacha tog' echkisi o'tlab yurardi. Ikki-uchta cho'pon bolalar ularga qarab yurardi. Ular Otabek bilan deyarli tengdosh yoki bir-ikki yosh kattaroq bolalar edi. Shu payt osmonda turli rangda tovlanib turgan kamalak ko'rindi. Otabekning ko'ziga Chimyon yanada go'zal ko'rindi.

5-topshiriq. Savollarga javob bering. Javoblaringizda chama sonlarni qo'llang.

1. Anvar aka va Otabek Chimyonga soat nechalarda yo'lga chiqdilar?
2. Anvar aka nechta manzaraning rasmini chiza boshladi?
3. So'qmoq yo'lda nechtacha tog' echkisi o'tlab yurardi?
4. Ularga nechta cho'pon bolalar qarab yurardi?

5. Ular taxminan necha yoshlarda edilar?
6. Chimyon sayohati Otabekda qanday taassurot qoldirdi?



Adabiy o'qish

Birlashgan o'zar

Qadim zamonda bir chol bor ekan. Uning uchta o'g'li bo'lgan ekan. Bir kuni chol o'g'illarini chaqirib, eng kattasining qo'liga bitta cho'p beribdi. «Sindirib ukangga ber», — debdi. Katta o'g'il cho'pni ikkiga bo'lib ukasiga beribdi. U ham cho'pning ikkala bo'lagini sindiribdi va ukasiga uzatibdi. Ukasi ham sindiribdi. Shundan keyin chol elliktacha cho'pni bir qilib bog'lab katta o'g'liga beribdi va unga debdi: «Qani, endi sindirib ko'r!». O'g'li qancha urinsa ham bog'langan cho'plarni sindira olmabdi. O'rtancha va kichik o'g'illari ham cho'plarni sindira olmabdilar. «O'g'illarim, sizlar ham shu cho'pga o'xshaysizlar. Agar ahil bo'lib yashasangiz, sizni hech qanday kuch yenga olmaydi», — debdi chol.

uchta — три штуки
 elliktacha — около пятидесяти
 kuch — сила
 sindirmoq — ломать

Uyga vazifa. Matnning mazmunini so'zlab bering.

ONA YURT POSBONLARI

(Vaqtни ifodalash. Butun va kasr sonlarning qo'llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Savollarga javob bering va rasm asosida suhbatlashing.

1. Ushbu rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Zobitlar nima qilyapti?
3. Zobitning tiz cho'kib o'tirishida qanday ma'no bor?
4. Siz «Vatan posboni» deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Vatan himoyachilari kuni

Har yili 14-yanvarda «Vatan himoyachilari kuni» bayram sifatida nishonlanadi. Vatan himoyachisi bo'lish eng ulug' burchdir. El-yurt uchun xizmat qilgan odam bir umr qadrlanadi. Bugun akalarimiz ozod Vatanimiz sarhadlarini ko'z qorachig'idek

asrashmoqda. Ular bizga, el-u yurtga sadoqat bilan xizmat qilyaptilar. Shuning uchun biz kechalari xotirjam uxlaymiz, ko'chalarda erkin yuramiz.



Sonlar arab yoki rim raqamlari bilan yozilishi mumkin. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilganda chiziqcha bilan, rim raqamlari bilan yozilganda esa chiziqchasiz yoziladi. Masalan: XX asr, 2016-yil 15-oktabr.

2-mashq. Berilgan gaplardagi sonlarni imlo qoidalari asosida raqam bilan yozing.

1. Bir ming to'qqiz yuz to'qson birinchi yilning o'ttiz birinchi avgustida O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. 2. Milliy qahramonimiz Muqanna dushmanga qarshi o'n to'rt yil jang qilgan. 3. Yigirma birinchi asr – texnika asri hisoblanadi. 4. “Jasorat” ordeni ikki ming birinchi yilda ta'sis etilgan. 5. Har yili o'n to'rtinchi yanvarda “Vatan himoyachilari kuni” nishonlanadi. 6. Ikki ming o'ninchi yil o'n ikkinchi yanvarda Toshkent shahrida “Vatanga qasamyod” haykali ochildi.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan sonlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilingandan keyin da davlatimizning milliy bayrog'i qabul qilindi. 2. Jaloliddin Manguberdi ordeni da ta'sis etildi. U Vatan sarhadlarini himoya qilishdagi yuksak xizmatlar uchun beriladi. 3. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ... da tasdiqlangan. 4. “Do'stlik” ordeni ... ta'sis etilgan bo'lib, u

O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun beriladi.

Foydalanish uchun: 1992-yil 10-dekabr, 1991-yil 18-noyabr, 1995-yil 5-may, 2000-yil 29-avgust.



Ketma-ket kelib, ma’lum bir muddatgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini bildiruvchi sonlar orasiga tire (—) qo‘yiladi. Masalan: 1441—1501-yillar, XIX—XX asr.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Sonlarning ma’nosi va imlosini tushuntiring.

Manguberdi jasorati

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullar bosqinchiligiga qarshi ayovsiz kurashgan xalq qahramoni edi. U yurtimizni mo‘g‘ullardan himoya qiluvchilarning oldingi safida bo‘ldi. U o‘zining sarkardalik, qo‘rqmaslik, mardlik fazilatlarini to‘la namoyon etdi. Jaloliddin o‘n to‘rt yil mobaynida ona-Vatanning turli sarhadlarida mo‘g‘ul to‘dalariga kuchli zarbalar beradi.

Jaloliddin Manguberdi va uning jasur jangchilari dushman bilan ayovsiz janglarda g‘olib chiqdi. Biroq ulug‘ qahramon xoinlarning tig‘idan halok bo‘ldi. Bu voqea 1231-yilning 17—20 avgustlarida sodir bo‘ldi. Uning ona-Vatanga muhabbati o‘zbek xalqi hayotida mangu nur sochib turadi.

(Bilol Aminov)

mangu — вечный
tig‘ — клинок (ножа)

sarhad — граница
xoin — предатель, изменник

Uyga vazifa: Matnning mazmunini soʻzlab bering.

2 - dars

3-topshiriq. Berilgan rasmlar asosida suhbatlashing.



4-mashq. Matnni oʻqing, mazmunini soʻzlab bering.

Boʻlajak harbiylar maskani

Toshkent harbiy telekommunikatsiya akademik litseyida boʻlajak harbiylar tayyorlanadi. Bu yerga toʻqqizinchi sinfini tamomlab, imtihonlardan muvaffaqiyatli oʻtgan yoshlar qabul qilinadi. Litsey oʻquvchilari yarim kunlik oʻquv mashgʻulotlarida harbiy intizom va qurollardan toʻgʻri foydalanish, guruhni mohirona boshqarish usullarini oʻrganadilar. Kunning ikkinchi qismida sport bilan shugʻullanadilar. Kamida ikki soat kitob oʻqish bilan band boʻladilar. U yerda fan toʻgaraklari, oʻn uch ming besh yuzga yaqin adabiyotlarga ega axborot resurs markazi bor.



Sonlar matematik miqdorni bildiradigan soʻzlardir. Ular butunni va uning qismini koʻrsatishi mumkin. Miqdorni butunligicha bildiruvchi sonlar **butun son**, butunning qismini ifodalovchi sonlar **kasr sonlar** deyiladi. Masalan: yetti (7), 30 (oʻttiz), yuz (100), ming (1000) – butun sonlar; uchdan ikki ($2/3$), yuzdan sakkiz ($8/100$) – kasr sonlar.

5-mashq. Berilgan raqamlarni oʻqing. Avval butun sonlarni, soʻngra kasr sonlarni harflar bilan yozing.

1 ; $2/5$; $5/3$; 8, 25; 10, 20.

4-topshiriq. Suhbat matnini oʻqing. Sonlarning qoʻllanishiga eʼtibor bering.

Geografiya darsida

- Ayting-chi, Yer yuzining qancha qismi quruqlikdan iborat?
- Yer yuzining toʻrtidan uch qismi quruqlikdan iborat.
- Uni aylanib chiqish uchun taxminan qancha vaqt kerak?
- Agar piyoda aylanib chiqilsa 18 yil-u 9 oy kerak boʻladi.
- Agar mashinada aylanib chiqilsa,



Adabiy oʻqish

Ona yurt posbonlari

Mard, jasurdir, pahlavon
Vatanim posbonlari.

Yurt uchun ko'ksi qalqon
Ona yurt o'g'lonlari.
Asraysiz kelajakni,
Qasamga sodiq qolib.
Yovlar yaqin kelolmas,
Bo'lgaysiz mudom g'olib.
Sog' bo'ling baxtimizga,
Tinchligimiz posboni.
Siz tufayli musaffo
Yurtimizning osmoni.
Mardlar saqlar Vatanni,
Muqaddas yurt tuprog'i.
Siz tufayli sokin tun,
Yashnar Vatan gul bog'i.

(G. Amirova)

pahlavon — богатырь
qalqon — щит
qasam — клятва

posbon — защитник
asramoq — защитить
yov, dushman — враг

Uyga vazifa. She'rni yod oling.

3 - dars



5-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

— Bobur, bilasanmi, mening akam harbiy bilim yurtida o'qiydi. Men ularga havas qilaman.

— Menga harbiy kiyimlar yoqadi. Sen ularning kiyimlaridan harbiy darajalarini farqlay olasanmi?

— Ha, agar ikkita yulduzcha bo'lsa, leytenant, uchta bo'lsa katta leytenant, to'rtta bo'lganda esa kapitan bo'ladi.

— Agar bitta katta yulduz bo'lsa-chi?

— Bitta katta yulduz bo'lsa mayor, ikkitasi podpolkovnik, uchta esa polkovnik bo'ladi.

— Yulduzlar katta-kichikligiga qarab farqlanar ekan-da.

— Bu yulduzlardan kattarog'i general unvonini, ikkita bo'lsa general-leytenant, uchta esa general-polkovnik bo'ladi.

— Qoyil, sen bularni qayerdan bilasan?

— Akamdan o'rganganman. Katta bo'lganimda men ham akamga o'xshab harbiy bo'lmoqchiman.



Kasr sonlar maxsus so'zlar bilan ifodalanishi ham mumkin: **yarim** ($1/2$), **chorak** ($1/4$), **nimchorak** ($1/8$) kabi. Butun son bilan kasr son aralash holda ham ishlatiladi: 3,5 - uch yarim kabi.

6-mashq. Juftlab berilgan sonlardan avval kasr sonlar hosil qiling, so'ngra ularni so'z bilan ifodalang.

2 va 4; 1 va 4; 1 va 8; 100 va 25;

7-mashq. Sonlarni so'zlar bilan o'zgartirib ko'chiring.

1. Turon elining milliy qahramoni To‘maris haqida 530-yilda yunon tarixchisi Geradotning “Tarix” asarida ma’lumot berilgan. 2. Zarafshon daryosi O‘zbekiston hududida 480 kilometr masofada vodiya tekislik bo‘ylab oqadi. 3. Yupiter — Quyosh sistemasining eng katta sayyorasi bo‘lib, uning diametri 142000 kilometrdan ortiq. 4. Kenguru orqa oyoqlariga tayangan holda 12 metr uzunlikka va 3 metrgacha balandlikka sakrab, juda tez yuguradi.



Adabiy o‘qish

Boburning maktubi

Salom, otajon, mehribon onajon! Xat yozolmaganimga ham ancha bo‘ldi. UZR. Harbiy mashqqa jo‘nab ketgan edik.

Bilasizmi, men o‘z jangovar kasbimdan faxrlanaman. Raketalar, tovushdan ham tezuchar samolyotlar, murakkab aloqa apparatlarini biz, askarlar boshqaramiz. Bizning xizmatimizda bilim va jismoniy bardamlik juda zarur. Xullas, harbiy xizmatni yaxshi o‘tash uchun bolalikdan mashq qilish kerak ekan.

Bo‘linmamizda har bir askar qo‘shimcha kasb egallash uchun harakat qiladi. Hozirgi harbiy texnika juda murakkab. Agar bir radist yoki operator safdan chiqsa, butun vazifa bajarilmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz bir-birimizning o‘rnimizni bosa olishimiz kerak.

Xayr, otajon! Navbatchilikka ketyapman. O‘g‘lingiz, serjant Bobur Nodirxonov.

Uyga vazifa. Maktub namunasi foydalanib, yaqinlaringiz yoki do‘stingizga xat yozing.

MUZEYDA

(Jamlovchi sonlarning yasalishi, ularning turlanishi va imlosi)

1 - dars



1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz Olimpiya shon-shuhrati muzeyida bo'lganmisiz?
2. Tarix va san'at muzeylarida-chi?
3. Qaysi yozuvchi va shoirlarning uy-muzeylarini bilasiz?

1- mashq. Matni o'qing va o'zaro suhbatlashing.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi 199-yil 1-sentabrda ochilgan. Muzeyda 11 000 dan ortiq eksponatlar mavjud. Ular AQSh, Ispaniya, Shveysariya va boshqa xorijiy davlatlardan olib kelingan. Muzeyning birinchi qavatida noyob eksponatlar

joylashtirilgan. Ikkinchi qavatida esa Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan yillarning jadvali berilgan. Ularda ishtirok etgan o'zbekistonlik sportchilarning kiyimlari, asbob-anjomlari, suratlari, mukofotlari bilan tanishish mumkin. Muzei videokassetasi tasmalariga eng qiziqarli musobaqalar tasviri yozilgan.

Muzeйда muhim uchrashuvlar, sport tadbirlari ham o'tkazib turiladi.



Jamlovchi sonlar shaxs va narsa-buyumlarning miqdorini jamlab ko'rsatadi. Ular ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga **-ov, -ovlon, -ala** qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi. *Uch, to'rt* sonlariga **-ala** qo'shimchasi qo'shilganda, **ch** va **t** tovushlari ikkita tovush tarzida aytilsa ham *uchala, to'rtala* shaklida yoziladi.

2-mashq. Berilgan sonlarga jamlovchi sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni qo'shib yozing.

Namuna: Ikki — ikkov — ikkovlon — ikkala.

Uch, to'rt, besh, olti, yetti.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga ajratib ko'rsatilgan so'zlarning jamlovchi son shakllarini yozib gaplarni ko'chiring.

Namuna: Nigora va Aziza yaqin dugona. Ikkalasi bir sinfda o'qiydi.

Nigora va Aziza yaqin dugona. ... bir sinfda o'qiydi.

Akam, ukam va men qorbo‘ron o‘ynadik. ... bu o‘yindan juda zavqlandik.

Aziz, Akbar, Jamshid va Dilshod bir mahallada yashaydilar. Qishki ta‘tilda ... tog‘da dam olishdi.

Akmal, Naima va yana uch o‘quvchi Yangi yil bayramida faol ishtirok etishdi. ... ham Qorbobodan sovg‘a olishdi.

4-mashq. Qavs ichida berilgan raqamlarni jamlovchi son shaklida yozing.

Sinfimizda egizaklar o‘qiydilar. Ularning (2) bir-biriga juda o‘xshashadi. (2) bir xil kiyinishadi, birga yurishadi. Men ularning (2) bilan yaqin o‘rtoqman. Ko‘pincha (3) birga o‘ynaymiz, dars tayyorlaymiz. (3) boks to‘garagiga qatnashamiz. Kecha sinfdoshim Jamshid ham shu to‘garakka yozildi. Endi to‘garak mashg‘ulotlariga (4) birga boramiz.

5-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sonlarning turlari va qo‘llanishini tushuntiring.

1. Muzei zalida o‘n-o‘n beshtacha odam bor edi.
2. Sinfidoshim bir-ikkita o‘rtog‘i bilan keldi. 3. Uchovimiz “Yosh tabiatshunos” to‘garagiga yozildik. 4. Ming-minglab odamlar y angiuylarga ko‘chib o‘tishdi. 5. Alisher Navoiy to‘rt-besh yoshidan she‘rlar yoza boshlagan. 6. Bir oy o‘ttiz-o‘ttiz bir kundan iborat.

Uyga vazifa. Jahon olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan O‘zbekiston yoshlaridan kimlarni bilasiz? Shu haqda yozing.

2 - dars

2-topshiriq. Berilgan rasm va savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

- Rasmda qayer tasvirlangan?
- Siz kimlarni ko‘ryapsiz?
- Ular nima qilishyapti?
- Devordagi suratlarda nimalar tasvirlangan?

6-mashq. Berilgan matni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.



Muzey haqida

Ensiklopedik lug‘atlarda «Muzey — san‘at yodgorliklari, texnik asboblari, ilmiy kashfiyotlar buyumlarini to‘plash, ularni saqlash va namoyish qilish muassasasidir», — deb ta‘rif beriladi. Har bir mamlakatda, shahar va katta qishloqlarda ham shu mamlakat va xalqning tarixi, san‘at va madaniyati, ilmiy fani bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlar muzeylarda saqlanadi. Muzeylarni har yili minglab odamlar borib tomosha qiladilar. Har

bir mamlakatda Tarix muzeyi, San'at muzeyi, Tabiat muzeyi, shuningdek, buyuk shaxslar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzeylar, uy-muzeylar, muzey-shaharlar ham mavjud.

faoliyat — деятельность

san'at — искусство

tabiat — природа

ma'lumot — сведения

ilmiy — научный

muassasa — учреждение

3-topshiriq. Savollar asosida suhbatlashing.

- Siz shahringizdagi qanday muzeylarni bilasiz?
- Jahonga mashhur qaysi muzeylar haqida eshitgansiz?
- Qaysi mashhur shaxslarning uy-muzeylari bor?
- Qanday shaharlar muzey-shaharlar hisoblanadi?



Jamlovchi sonlar, odatda, egalik qo'shimchalari bilan birgalikda qo'llanganda **kimlar? nimalar?** so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *Komila va Nozima – ikkovlari (kimlar?) yaqin dugonalar. Uchalamiz (kimlar?) birga dars tayyorladik.*

7-mashq. Nuqtalar o'rniga mos jamlovchi sonlarni qo'yib yozing.

Shoira, Matluba va men — bir sinfda o'qiyimiz. Bizning sinfimizga Alisher Navoiyga bag'ishlangan tadbir o'tkazish topshirildi. Tadbirni o'tkazish rejasini tuzish uchun sinf rahbarimiz, guruh sardori va guruh yetakchisi — ...

yig'ildik. Tadbirda Dilshod bilan Zebo — ... boshlovchilik qiladigan bo'lishdi. Tadbir ssenariysini ... Aziza, Diyora, Umid va men tuzadigan bo'ldik. Kechamiz juda yaxshi o'tdi. Faol qatnashganimiz uchun sinf rahbarimiz ... maqtadilar.



Adabiy o'qish

O'zbekiston geologiya muzeyi

O'zbekiston geologiya muzeyi 1988-yilda ochilgan. Muzeйда geologiya fanining rivojlanishi, birinchi o'zbek geologlari, dastlabki konlarni ochgan geologlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Muzeydagi eksponatlarning soni 32 mingdan ortiq. Noyob geologik topilmalarning namunalari ham namoyish qilinadi. Ular orasida o'z ichiga 300 ta namunani qamrab olgan maxsus petrografik kolleksiya ham mavjud. Minerologik kolleksiya esa 858 ta noyob namunadan, monografik paleontologik kolleksiya 2631 ta namunadan iborat. Ulardan 783 tasi Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududining rivojlanishi tarixi zalida joylashgan.

hajm — объём

shaxsiy — личный

boyitilgan — обогащенный

qamrab olgan — обхватывать

noyob — редкий

topilma — находка

Uyga vazifa. “Muzei taassurotlari” mavzusida matn tuzing.

3 - dars

4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

- Behzod, sen Tabiat muzeyiga borganmisan?
- Yo‘q. U yerda nimalar bor?
- Tabiat muzeyida har xil hayvonlar, qushlar va boshqa jonzotlar haqida ma‘lumotlar bor, ularning o‘nlab namunalari qo‘yilgan.
- Sher, yo‘lbars kabi yirtqich hayvonlarning namunalari ham bormi?
- Albatta, bor. ...

!

Jamlovchi sonlar kelishik qo‘shimchalari bilan kelganda quyidagi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Kimlar?

Kimlarning?

Kimlarni?

Kimlarga?

Kimlarda?

Kimlardan?

ikkalamiz

 +

ning

ni

ga

da

dan

8-mashq. Matnni o‘qing. Sonlar va hisob so‘zlarini aniqlab, turi va qo‘llanishini tushuntiring.

Qo‘ng‘ir ayiq

Qo‘ng‘ir ayiq baquvvat, miqti gavdali bo‘ladi. Uning tumshug‘i cho‘ziqroq, boshi esa dumaloq, ko‘zlari kichkina, quloqlari kalta, bo‘yni yo‘g‘on. Qo‘ng‘ir ayiqning to‘rtala oyog‘ining har birida beshtadan o‘tkir tirnoqlari bor. Uning tishi 36-40 ta. Ayiqning bo‘yi bir-bir yarim metr, og‘irligi esa 150-200

kilogramm keladi. U o'simliklarni ham, go'shtni ham yeyaveradi. U oldingi oyoqlarida tik turib, ikki oyoqlab ham yura oladi. Daraxt va tik qoyalarga chaqqonlik bilan chiqadi.

9-mashq. Berilgan gaplarni to'g'ri joylashtirib bog'lanishli matn hosil qiling. Sonlarning qo'llanishini tushuntiring.

Demak, o'simliklarni har kuni 1200 ta hasharotdan qutqaradi. Bir juft qaldirg'och har kuni 600 tacha hasharotni bolalariga olib keladi, yana shuncha hasharotni o'zi yeydi. Qaldirg'och insonning eng yaqin do'stidir. Ular bir soat davomida o'z bolalariga tumshuqlarini to'ldirib 20 marta ovqat olib kelishadi. Qaldirg'ochlar bir kunda 16 soatlab parvoz qilishadi.



Adabiy o'qish

O'simliklar muzeyi

1950-yilda Toshkent Botanika bog'iga asos solindi. 80 gektar maydonni egallagan mazkur bog' Dendrariy yoki Dendrapark deb atalib, u yerda 5 500 dan ortiq o'simliklarning turli navlari jamlangan. Bog'da Yevropa, Shimoliy Amerika, Xitoy, Kavkaz, Uzoq Sharq va O'rta Osiyo o'simliklar dunyosidan keltirilgan 2 500 000 dan ziyod noyob o'simliklar o'stirilmoqda. Ular orasida 170 ta xushbo'y o'simlik ham mavjud. Do'lana, qizilcha, zira kabi dorivor o'simliklarning barcha turlari to'plangan.

Botanika bog'ini ko'rish uchun har yili minglab kishilar keladilar.

Uyga vazifa: Kuzatishlaringiz asosda biror uy hayvonini tasvirlab bering.


MASHHUR KISHILAR

(Ravish, uning ma'no turlari.
Maqsad va sabab ravishlari)

1 - dars



Ahmad al-Farg'oniy



Abu Nasr Forobiy



Zahiriddin
Muhammad Bobur

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering va suhbatlashing.

1. Rasmda kimlar aks ettirilgan?
2. Koinot sirlarini o'rgangan buyuk alloma kim?
3. Oydagi kraterlardan ikkitasi kimlarning nomi bilan ataladi?

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Ulug' ajdodimiz Ahmad al-Farg'oniy ilk Uyg'onish davrining eng kuchli namoyandalardan biridir. Allomaning «Astronomiya asoslari» asari **XII asr**dayoq lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. **XVI asr**da Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Amerikalik tarixchi Sarton milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga baho berar ekan, **XI asrni** «Beruniy asri» deb ta'riflaydi.

(I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan)



Ravishlar harakat va holatning qay tarzda bajarilishini, o'rne, payti, daraja-miqdorini bildiruvchi so'zlar bo'lib, ular quyidagi so'roqlariga javob bo'ladi.

qanday?	qayer(-ga, -da, -dan)?	qachon?	qancha?
tez	pastda	bugun	ko'p
sekin	uzoqda	kechqurun	ozgina
do'stona	o'ngdan	ertalab	kam

2-mashq. Gaplarni o'qing. Ravishlarning qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.

1. Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla. 2. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar. 3. Cho'qqilarda yaltiraydi qor, pastda esa go'yoki bahor. 4. Har kuni ertalab badantarbiya mashqlarini bajaramiz. 5. Kech kirdi, uzoqlarda chiroqlar ko'rina boshladi.

3-mashq. Qavs ichida berilgan so'roqlar o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz (qachon?) markaziy kutubxonaga boramiz. 2. Uyga (qaytarzda?) mehmonlar kelib qolishdi. 3. Metro bekati (qayerdan?) ko'rinib turar edi. 4. Katta yo'llarda mashinalar

(qaytarzda?) yuradi. 5. Bulutlar (qaytarzda?) tarqala boshladi. 6. (Qachon?) hammamiz bir joyga yig'ildik. 7. Har kuni (qachon?) badantarbiya mashqlarini bajaramiz.

Foydalanish uchun: uzoqdan, ertalab, bugun, tez, to'satdan, kechqurun, asta-sekin.

4-mashq. Matni o'qing. Vaqtni bildiruvchi so'zlarni mos raqamlar bilan yozing.

To'qqizinchi asrda yashagan Muhammad Muso Xorazmiy matematik olim edi. Uning matematikaga oid «Aljabr va almuqobala» asari dunyoga mashhur. Bu kitobning «aljabr» qismi «algebra»ga aylanib, shu fanga xos atama bo'lib qolgan. Ushbu asar Yaqin va O'rta Sharqda, keyinchalik G'arbda darslik sifatida qo'llangan. Hozirgi birdan o'ngacha bo'lgan o'nlik raqamlar olimning shu kitobi orqali dastlab hindlardan arablarga, ulardan esa g'arbliklarga o'tgan. Hozir bu raqamlar butun dunyoda ishlatiladi.

oid — относящийся
butun dunyo — весь мир
qo'llamoq — использовать

atama — термин
raqam — цифра
o'nlik — десятка

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'rta osiyoda eng katta markazlashgan davlat barpo qilgan buyuk sohibqiron kim?
2. Afg'oniston va Hindistonni birlashtirib, eng katta markazlashgan davlat barpo qilgan mashhur davlat arbobi kim?

3. Turkiy tilda juda ko'p g'azallar, dostonlar yozib, o'zbek adabiy tiliga asos solgan ulug' inson kim?

4. Astronomiya sohasida ulkan ixtirolar qilgan eng mashhur olim va davlat arbobi kim?

Uyga vazifa. O'zingiz bilgan mashhur insonlar nomlarini tuzing va ular qanday ixtirolar qilganliklarini yozing.

2 - dars

5-mashq. Matni o'qing va so'zlab bering.

Abu Nasr Forobiy

Mashhur faylasuf va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy 873-yilda Sirdaryo qirg'og'idagi O'tror qishlog'ida tug'ilgan. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolemey, Profiriylarning asarlariga sharhlar yozib, bu asarlarning Sharqqa tarqalishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun u «Al-Muallim as-soniy» — «Ikkinchi muallim», «Sharq Arastusi» deb nom olgan. Forobiy 70 dan ortiq tilni bilib, turli fanlarga oid 160 dan ortiq asar yaratgan.



Ravishlar ma'nosiga ko'ra **holat, o'rin, payt, miqdor-daraja, maqsad-sabab** ravishlariga bo'linadi. **Ataylab, atayin, jo'rttaga, qasddan** so'zlari maqsad ma'nosini ifodalovchi ravishlardir.



Adabiy o'qish

Men Boburman

Men Boburman, bolajonlar,
Bilasizmi, kim aslim?

Men Boburman, bolajonlar,
Bilasizmi, kim naslim?

Men Boburman, bilib oling:
Aslim asli Andijon.

Men Boburman, eslab qoling,
Naslim asli Temurxon.

Men Boburman, o'n ikkimda
Saltanatga bo'ldim bosh,
Qilich ushlab Temur bobom,
Ruhlariga berdim osh.

Men Boburman, el-yurt uchun
Cho'l, sahroda ot surdim.
Jang-jadalda qancha omad,
Qancha nomard, mard ko'rdim.

Men Boburman, — jahongashta:
Hind — Afg'onga yetdim men.
“Boburnoma”, she'r, g'azalda
Turkchani madh etdim men.

Uyga vazifa. She'r matnidan foydalanib, Bobur haqida so'zlab bering.

3 - dars

3-topshiriq. Bobur nomi bilan bog‘liq ma’lumotlarni bilib oling.

Zahiriddin Muhammad Bobur shoir, shoh va buyuk sarkarda sifatida jahonda dovrug‘ taratgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari eng nodir qomusiy asarlardan biri hisoblanadi.

Bobur 12 yoshidan taxtga o‘tirgan va mamlakatni boshqargan.

Boburiylar sulolasi 200 yil davomida Hindistonni boshqargan va bu mamlakatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Jahondagi yetti mo‘jizadan biri hisoblanadigan Tojmahal Boburning chevarasi Xurramshoh tomonidan qurdirilgan.



Noiloj, ilojsizlikdan so‘zlari sabab ma’nosini bildiradi. Masalan: *Noiloj shunga rozi bo‘ldim. Ilojsizlikdan o‘z dushmanining yoniga bordi.*

**Adabiy o‘qish****Bobur so‘zining ma’nosi**

(hikoyat)

Farg‘ona viloyatining podshosi Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad yoshligidan aqlli va dovyurak bo‘lib o‘sibdi. Umarshayx har gal ovga chiqqanida o‘g‘lini ham birga olib ketar ekan. Bir kuni yosh Zahiriddin changalzorda adashib qolibdi. Kun botishda kimsasiz bir g‘orni ko‘rib: «Shu yerga kirib

yotaman, tong otgach, albatta otamni axtarib topaman», deb o‘ylab g‘orga kiribdi.

Yarim kechada dahshatli o‘kirish ovozi eshitilibdi. Qarasa, og‘zida kattakon o‘ljani tishlab olgan bir ona yo‘lbars g‘orga qarab kelayotgan emish. Bola jim turaveribdi. Shu payt ikki yo‘lbarsvachcha bir-birlarini quvlashib Zahiriddinning shundoqqina yonidan o‘tib, onasiga yopisha ketibdi. Ona yo‘lbars bolalarini erkalabdi va keltirgan o‘ljasi bilan ularni ovqatlantiribdi.

Shunday qilib, Zahiriddin ertalabgacha uxlamabdi. Tong otgach, ona yo‘lbars o‘lja qidirib g‘ordan chiqib ketibdi. Zahiriddin Muhammad birpas indamay turibdi-da, yo‘lbarsvachchalar yoniga boribdi. Ular bilan o‘ynashib tezda apoq-chapoq bo‘lib olibdi.

Ovga berilib ketgan podsho oldiniga o‘g‘lining yo‘qolganini sezmad. Zahiriddin Muhammadning yo‘qligini bilgan. Umarshayx mash‘alalar yoqib, changalzorni qarab chiqishni buyuribdi. Bir payt Umarshayxning ko‘zi yo‘lbars izidagi qonga tushib qolibdi. «Bolaning yo‘lbars olib qochibdi», deb o‘ylabdi. Umarshayx yo‘lbars izidan ovchilar bilan borishib changalzor chetidagi tashlandiq bir g‘orga kirib qarashsa, bir bola ikkita yo‘lbarsvachcha bilan o‘mbaloq oshib o‘ynashayotgan emish.

Ovchilar yo‘lbars bolalari bilan Zahiriddin Muhammadni olib saroyga qaytishibdi. Bu voqea birpasda butun shaharga tarqabdi.

Shu voqeadan keyin bolaning asli ismi Zahiriddin Muhammad so‘zi yoniga Bobur, ya‘ni yo‘lbars laqabini qo‘shib ataydigan bo‘libdilar.

Uyga vazifa. Hikoyatning mazmunini so‘zlab bering.



BAHORGI ISHLAR

(Payt va o‘rin ravishlari, ularning qo‘llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Berilgan tayanch so‘zlar yordamida, bahorda bajariladigan ishlar haqida suhbatlashing.

Daraxt ko‘chatlari, gul ko‘chatlari, oqlamoq, ekmoq, taglarini yumshatmoq, gul ekmoq, gullarni parvarishlamoq.

1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor bering.

Bahor uyg‘onish va yangilanish faslidir. **Avval** maysalar ko‘karadi, **so‘ngra** daraxtlar kurtak chiqaradi, gullar ochiladi. **Har yili** bahorda yangi daraxt ko‘chatlari o‘tqaziladi. Yerlar chopilib, dalalarga ekinlar ekiladi. Ko‘cha-hovlilar tozalanib, turli gullar ekiladi. Issiq mamlakatlarga uchib ketgan qushlar qaytib kela boshlaydilar. **Eng avval** qaldirg‘ochlar uchib keladi, shuning

uchun ularni bahor elchilari deb ataydilar. Bahor barchaga: o'simliklarga ham, hayvonlar, qushlarga ham, insonlarga ham quvonch keltiradi.

butun — весь
kurtak — почка

maysa — трава
yangilanish — обновление



Kecha, bugun, erta, indin, o'tgan kun, o'tgan yil, kelasi yil, har yili, har kuni, ertalab, kunduzi, kechqurun, kech, hozir, ilgari, avval, doim, oldin, dastlab, keyin, so'ng, hali so'zlari payt ravishlari deyiladi. Ular **qachon? qay vaqt?** so'roqlariga javob bo'ladi.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring. Payt ravishlarining tagiga chizing.

1. Avval o'yla, keyin so'yla. 2. Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda. 3. Ilk bahor kunlaridanoq qaldirqochlar uchib keladi. 4. Har doim bo'lsin tinchlik! 5. Ertangi kun bugundan boshlanadi. 6. O'tgan yil ekilgan ko'chatlar bu yil hosilga kirdi. 7. Ertalab chiqadi, kechqurun botadi.

3-mashq. Foydalanish uchun berilgan payt ravishlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... akam bilan birga ekinlarning tagini yumshatdik.
2. Jiydazordan ... keldim. 3. ... olma daraxti ham gullaydi.
4. ...chigit ekishni boshlaymiz. 5. ... gullarga suv quyamiz.
6. Tabiatga ... e'tibor bilan qaraylik.

Foydalanish uchun so'zlar: erta-indin, hamisha, hozir, ertaga, keyin, ertalab.

4-mashq. Bahorda bajariladigan ishlarni tartib bilan yozing. Bunda payt ravishlaridan foydalaning.

Namuna: 1. Erta bahorda yerlar chopiladi. 2.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bahor kelishi bilan eng avval tabiatda nima yuz beradi?
2. Keyin qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
3. Avval qaysi gullar ochiladi? So'ngra nimalar gullaydi?
4. Eng avval qaysi qushlar qaytib keladi?

5-mashq. Matnni o'qing. Payt ravishlarini aniqlang.

Bahor elchilari

Har yili erta bahorda ayvonimiz shiftiga bir juft qaldirg'och uya quradi. Bobom: «Qaldirg'ochlar insonlarning do'sti. Ularni e'zozlang», deyдилar. Ukam bilan men har kuni dasturxondagi non ushoqlarini qaldirg'ochlar uchun sepib qo'yamiz. Bir kuni maktabdan kelsak, qaldirg'ochning bitta bolasi uyasidan yerga tushib ketibdi. Ona qaldirg'och uning tepasida chir-chir aylanar, biroq qanday yordam berishni bilmas edi. Biz ukam bilan darrov narvon keltirib, qaldirg'ochning bolasini uyasiga qo'ydik.

ushoq — крошка, мелький

sepib qo'ymoq — сыпать

juft — пара

narvon — лестница

3-topshiriq. She'rdagi adashgan so'zlarni o'rniga qo'yib to'g'ri o'qing.

Soʻzlar adashdi

Gulga qoʻndi gulqoqi, Sharsharalar kapalak,
Rang-barangdir oʻynoqi. Tongda tinmas kamalak.
Koʻkka chiqdi kurtaklar, Juda qiziq oymomo
Quloq teshar ertaklar. Dorivordir muammo.
 Yechilmaydi xoʻrozlar,
 Ochilmoqda ovozarlar.

(Kavsar Turdiyeva)

Uyga vazifa. «Soʻzlar adashdi» sheʼrini toʻgʻri shaklda yozing.

2 - dars

4-topshiriq. Suhbat matnini rollarga boʻlib oʻqing.

- Assalomu alaykum! Hormang, dada! Biz keldik.
- Keldinglarmi, oʻgʻillarim? Mana, kichkina hasharchilar ham kelib qolishdi.
- Biz nima ish qilaylik?
- Sherzodjon, sen suv olib kel. Shahzodjon, sen mana bu koʻchatlarni ushlab tur. Men avval yerni kavlab olay, keyin ularni ekamiz.
- Dada, nega hamma koʻchat ekyapti?
- Mahallamiz obod boʻlsin deb, oʻgʻlim. Mahalla obod, tinch va ahil boʻlsa, yurtimiz tinch boʻladi. Yurt tinch boʻlsa, Vatanimiz tez rivojlanadi.

6-mashq. Matnни oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor bering.

Hashar

Yurtimizda **har yili** bahor faslida umumxalq hashari o'tkaziladi. Hasharda uylar, ko'chalar tozalanadi. Bunda katta-yu kichik barcha qatnashadi. **Qadimdan** hashar yordamida katta-katta bog'lar barpo etilgan, ulkan qurilishlar bunyod qilingan, suvlar chiqarilgan, qiynalgan oilalarga uylar qurib berilgan. Masalan, Katta Farg'ona kanali hashar yordamida qazilgan. Bu ulkan qurilishda minglab odamlar **kecha-yu kunduz** tinmay ishlaganlar. Hashar xalqimizning **hozirgi kungacha** saqlanib kelayotgan ajoyib udumlaridan biridir.

hasharchi — помощник
chala — незаконченный

kavlamoq — копать
ko'chat — саженец



Pastda, o'ngda, chapda, ichkarida, tashqarida, o'rtada, uzoqda, bu yer (-ga, -da, -dan), shu yer (-ga, -da, -dan), u yer (-ga, -da, -dan) so'zlari o'rin ravishlaridir. Ular **qayerga? qayerda? qayerdan?** so'roqlariga javob bo'ladi.

7-mashq. Gaplardagi o'rin ma'nosini ifodalab kelayotgan so'zlarni aniqlang. Ma'nosidagi farqlarni tushuntiring.

1. Hamma yerda bahorgi ishlar boshlab yuborilgan.
2. Uzoqdan qushlarning chug'urlashi eshitiladi.
3. Bu yerda uzumning juda ko'p navlari, tut, yong'oq daraxtlari o'sar, qulupnay va rezavor o'simliklar ekilar edi.
4. Pastda dehqonlar

chigit ekish uchun kerakli narsalarni hozirlash bilan ovora edi.
5. Tashqarida bolalarning sho‘x kulgusi eshitilar edi.

8-mashq. Matndan o‘rin ravishlarini aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

«Yong‘oqlar meniki» o‘yini

O‘yin uchun bolalar pastda chuqurcha kavlashadi. U tayyor bo‘lgach, o‘rtada saf tortib turgan bolalar chuqurchaga bittadan yong‘oq tashlashadi. Keyin har bir bola chuqurcha yonida turib cho‘ntagidagi yong‘oqlardan birini uzoqqa otadi. Kimning yong‘og‘i eng uzoq joyga tushsa, u birinchi bo‘lib chuqurcha ichidagi yong‘oqlar, ya‘ni «yovvoyi hayvonlar»ni mo‘ljalga oladi. Ishtirokchi mo‘ljalni bexato olib, yong‘og‘ini chuqurchaga tushira olsa, to‘plangan yong‘oqlarning hammasi o‘sha bolaniki bo‘ladi. Qolgan bolalar yana bir donadan yong‘oq tashlashadi. O‘yin yuqorida aytilgan tartib bo‘yicha davom etadi.



Adabiy o‘qish

Bog‘dagi ishlar

Bog‘imiz tekislik yerda emas, Chaqar arig‘i va Bo‘zsuvlarning qo‘shilish yerida, jar bo‘yida joylashgan. Manzarasi go‘zal. O‘t-o‘lan va meva gullariga belangan bog‘, bulbullar navosi, chumchuq va qushlar sadosi, ariq suvining mayin shildirashi bilan to‘lib toshganday tuyulardi. Hovuz bo‘yida ochilib yotgan atirgul, qirqog‘ayni, gulsapsarlarni, ishkom ichi-

dagi chuchmo‘ma, lolaqizg‘aldoqlarni, ariq labidagi xushbo‘y yalpiz, gunafshalarni aytmayszmi?

Bahorda bog‘da ish qaynardi. Hovuz labidagi tol yalpizlarini kesish, butash, toklarni ochish, ariq tozalash, yerlarni chopib, ekinga joy hozirlash va hokazo. Bog‘imizda uzumning juda ko‘p navlari, shuningdek, olma, nok, shaftoli, gilos, olcha, tog‘olcha, olxo‘ri, do‘lana, tut, yong‘oq daraxtlari o‘sar, qulupnay va rezavor o‘simliklar ekilar edi. Bular yozi bilan galma-gal pishib yetilar va dasturxonimizni bezar edi. Bog‘imiz shunday farovon bo‘lishidanmi, yozda dadam vaqtini uyda dam olish, ekinlarga qarash, qarindosh-urug‘larnikiga qovun va bog‘ sayliga borish bilan o‘tkazar edilar.

(Habibulla Qodiriy)

manzara — вид, зрелище
farovon — благоустроенный

galma-gal — черёд
jar — овраг

Uyga vazifa. Savollarga javob bering.



1. Hashar qachon va qayerlarda o‘tkaziladi?
2. Maktabingizda o‘tkazilgan hasharda kim nima ish bilan shug‘ullanadi?
3. Mahallangiz yoki ko‘changizdagi hasharda qanday ishlarni bajarasiz?

MILLIY TAOMLAR

(Holat va miqdor-daraja ravishlari, ularning qo'llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Berilgan tayanch so'zlar yordamida gaplar tuzing va suhbatlashing.

Tayanch so'zlar: sumalak, xursand, astoydil, bug'doy undirish, katta qozonlar, qo'shiq va raqslar.

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan milliy taomlar nomlarini daftaringizga ko'chiring.

Milliy taomlar

Har bir xalqning milliy taomlari mavjud. Jumladan, kavkazliklarning **chxombili**, ruslarning **blini**, qozoqlarning **beshbarmoq**, uyg'urlarning **lag'mon**, o'zbeklarning **palov** kabi milliy taomlari barchaga ma'lum va mashhur. Hatto ayrim bayramlar, to'ylarda tayyorlanadigan maxsus taomlar ham bor. Masalan, Sharqda Navro'z kunlari **sumalak**, **halim** kabi maxsus

taomlar pishiriladi. Bu taomlar ko'pchilik bo'lib tayyorlanadi. O'zbeklarning to'y-tanatanalari **palovsiz** o'tmaydi. Har bir o'zbek xonadonida farzand tug'ilganida ham, voyaga yetganida ham yurtga osh beriladi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz yana qanday milliy taomlarni bilasiz?
2. Sizga qaysi xalqning milliy taomi yoqadi?
3. Navro'z bayramida yana qanday taomlar tayyorlanadi?
4. Siz sumalak tayyorlashda ishtirok etganmisiz? Taassurotlaringizni so'zlab bering.



Sekin, asta, tez, ohista, astoydil, to'satdan, chinakamiga, mardona, zo'rg'a, bolalarcha, guldek kabi ravishlar ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi. Ular **qay tarzda? qay holda? qanday?** so'roqlariga javob bo'ladi.

2-mashq. O'qing. Harakat tarzini ifodalovchi so'zlarni aniqlang va matnni og'zaki davom ettiring.

Nigora 6- sinfdan o'qiydi. U maktabdan qaytgach, uy ishlarida onasiga ko'maklashadi. Xonalarni yig'ishtiradi, hovli-ko'chalarni supuradi. Endi sekin-asta taomlarni mustaqil pishirishni ham o'rganmoqda. Astoydil harakat qilib, somsa, shirinliklar pishirishni o'rganib oldi. Moshxo'rda, mastava, sho'rva kabi suyuq ovqatlarni mazali pishiradi. Endi palov pishirishga jiddiy kirishyapti.

3-mashq. Qavs ichidagi so‘roqlarga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Har bir taom shirin bo‘lishi uchun (qaytarzda?) harakat qilish kerak. 2. Nigora onasiga (qanday?) ko‘maklashadi. 3. U ovqat pishirishni (qanday?) o‘rganib oldi. 4. Buvim qatlamani (qanday?) pishiradilar.

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlar va birikmalardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Bolalar ... ishladilar. 2. Yoshlar ... yugurganlaricha tepalikka chiqib ketishdi. 3. Barcha ... kulib yubordi. 4. Gilam turli-tuman ranglarda ... tovlanardi. 5. Haydovchi mashinani ... to‘xtatdi. 6. Ikki do‘st ... suhbatlashdi.

Foydalanish uchun: astoydil, bolalardek, birdan, cho‘g‘day, darhol, samimiy.

3-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

— Jahongir, sen qaysi taomni yoqtirasan?

— Men palovni yaxshi ko‘raman. O‘zing-chi?

— To‘g‘ri, palov juda shirin va to‘yimli taom. Biroq menga sumalak ko‘proq yoqadi.

— Ha, sumalak faqat Navro‘z kunlaridagina pishiriladi. Palovni esa uyda har kuni tayyorlash mumkin. Sumalak — ko‘pchilik bilan uzoq vaqt tayyorlanadigan taom. Aytishlaricha, bir marta sumalakni to‘yib yegan odam bir yilgacha sira kasal bo‘lmas ekan. Ha, sumalak juda foydali taom.



Adabiy o'qish

Mehnatning noni shirin

Soqi maktabdan keldi. Onasi uning oldiga bir kosa sho'ruva keltirib qo'ydi. Soqi sho'rvadan bir qoshiq ichib, «Onajon, sho'rvangiz shirin emas ekan, ichmayman», — deb o'rnidan turib ketdi. Ona o'g'lini bog'ga olib chiqdi va kechgacha xazon tashitdi. Soqi horib-charchab uyga kirdi. Qorni ochib, ovqat so'radi. Onasi yana haligi sho'rvani isitib, o'g'lining oldiga qo'ydi.

Soqi sho'rvani ishtaha bilan paqqos tushirdi. Sho'ruva unga juda mazali tuyuldi. U bunday sho'rvani hech qachon ichgan emasdi. Soqi shularni aytganda, onasi kulib yubordi. Chunki bu ovqat haligi sho'rvaning o'zi edi...

(Abdulla Avloniy)

Ayting-chi, nega sho'ruva Soqiga shirin tuyuldi?

to'yimli — калорийный

tayyorlash — готовить

horib-charchab — уставший

haligi — тот же

taom — еда

foydali — полезный

mazali — вкусный

tuyulmoq — казаться

Uyga vazifa. O'zingizga yoqadigan taomni tayyorlash tartibini yozing.

2 - dars

4-topshiriq. Rasmlarda tasvirlangan taomlarning nomini ayting va tayanch so'zlardan foydalanib, ularning mazasi, qanday tayyorlanishi haqida ma'lumot bering.



Tayanch soʻzlar: shirin, mazali, qaynoq, sabzisi koʻp, magizli, goʻshtli, qovoqli, issiq, yumshoq.



Miqdor ravishlari harakat-holat va narsa-buyumlarning noaniq miqdorini bildiradi va **qancha?** soʻrogʻiga javob boʻladi. Misollarni qiyoslang:

koʻp ishlamoq koʻp narsa

5-mashq. Miqdor ravishlarini toping va qaysi soʻzga bogʻlanganligini ayting.

1. Bu yil dalalarda moʻl hosil yetishtirildi. — Dalalarda bu yil hosil moʻl boʻldi. 2. Taomga yana picha tuz solish kerak. — Charchadik, shekilli, picha dam olaylik. 3. Ancha harakat qilibsiz, ahvol ancha yaxshilanibdi. — Uyda ancha osh bor, hammaga yetadi. 4. Togʻ etagidagi qishloqlarda buloqlar koʻp. — Oʻshandan beri koʻp narsalar oʻzgardi.

6-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻzaro bogʻlab, 2 ta maqol hosil qiling va ushbu maqollarning maʼnolarini tushuntiring.

Kam, bilgan, gapni, toma-toma, kam, koʻl, soʻzla, boʻlur,

ishni, ko‘zla, ko‘p, oz, so‘zlar, bilgan, oz, soz, yig‘ilib, so‘zlasa, mo‘l, ham, so‘zlar, oz-ozdan, bo‘lur.

5-topshiriq. Suhbatni davom ettiring va o‘zingiz mustaqil pishirgan taomingizni tayyorlash tartibini gapirib bering.

— Men uyda yakka o‘zim mustaqil holda palov pishirdim. Buning uchun avval

— Men esa mastava pishirishni o‘rgandim. Mastava pishirish uchun ...

— Men onamga somsa pishirishda ko‘maklashdim. ...

— Men ...

7-mashq. Palov tayyorlash tartibi bilan tanishing. Matnda qo‘llangan holat ravishlarini aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Palov tayyorlash uchun yog‘, go‘sht, piyoz, sabzi, guruch mahsulotlari kerak bo‘ladi. Qozonga yog‘ solib qizdirilgach, mayda to‘g‘ralgan yoki yaxlit go‘sht piyoz bilan birga tez-tez qovuriladi. Piyoz qizargach, somoncha shaklida to‘g‘ralgan sabzini qo‘shib asta-sekin aralashtiriladi va yana qovuriladi. Keyin botar-botmas suv solib, past olovda asta-sekin qaynatiladi. Zirvak 40 daqiqa qaynagach, darhol guruchni solib, baland olovda suv qolmaguncha tez qaynatiladi. So‘ngra 30 daqiqa damlab qo‘yiladi. Damlashdan oldin guruch ustiga turli ziravorlar sepilsa osh yanada mazali bo‘ladi.

qovurmoq — жарить

ziravorlar — специи

aralashtirmoq — смешивать

yaxlit — целиком

somoncha — соломка

zirvak — соус

3 - dars



6-topshiriq. Suhbat matnini rolli o‘qing va davom ettiring.

Nigora: Qizlar, bilasizmi, kecha men sho‘rva pishirdim. Sho‘rva juda shirin chiqdi. Dadam ham juda maqtadilar.

Muxlisa: Bir o‘zing pishirdingmi yoki onang yordam berdilarmi?

Nigora: Bir o‘zim pishirdim, onam faqat masalliqnlarni ajratib berdilar va ketma-ketlikni aytib turdilar.

Muxlisa: Men onajonimga sabzi, kartoshka artib berib turaman, lekin hali mustaqil taom pishirganim yo‘q.

Iroda: Menga esa ovqat pishirishni buvijonim o‘rgatyaptilar.



Juda, g‘oyat, nihoyatda, benihoya so‘zlari sifat va ravishlarga qo‘shilib kelib, belgining darajasini bildiradi. Ular **qanday?**, **qay darajada?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *juda xursand bo‘lmoq* (qay darajada?), *g‘oyat go‘zal* (qanday?)

8-mashq. Berilgan so‘zlarga daraja ma‘nosini bildiruvchi so‘zlarni qo‘shib yozing, so‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: ko'p o'qimoq – juda ko'p o'qimoq.
A'lochi bo'lish uchun juda ko'p o'qish kerak.
Yaxshi, sekin, chiroyli, baland, keng, mazali.

9-mashq. O'qing. Daraja-miqdor ravishlarini aniqlang.

1. Palov ko'p damlab qo'yilmaydi, chunki guruch ezilib ketadi. 2. Biz onam pishirgan mastavani juda yoqtiramiz. 3. Norinni dasturxonga tortish oldidan ustiga picha to'g'ralgan piyoz qo'yilsa, ishtahani ochadi. 4. Bolalar qozonga o't qalash uchun adirdan juda ko'p o'tin topib kelishdi. 5. Sho'rva qaynab chiqishi bilan olovni biroz pasaytirish kerak.

7-topshiriq. So'z va so'z birikmalaridan gaplar, gaplarni tartib bilan qoi'yib matn tuzing.

1. Men, pisirishni, taomini, dimlama, juda, yaxshi ko'raman.
2. Masalliq, qozonga, to'g'rab olingach, artib, teriladi. 3. Buning uchun, kartoshka, bizga, yog'li go'sht, biroz, sabzi, va, ziravor, karam, kerak bo'ladi. 4. So'ng, suv solib, picha, damlab, 45 daqiqa, qo'yiladi

Ayting-chi, matn nima haqida ekan?



Adabiy o'qish

Shirin palov

— Hoy bolalar, palov yeysizmi? Achchiq-chuchuk bilan juda ham shirin bo'ladi-da, — dedi Salim aka.

— Hozir pomidorni qayerdan olar ekan? — deb hayron bo‘lishdi tol tagida o‘tirgan bolalar.

— Yeymiz, — dedi Hakim birinchi bo‘lib.

— Men moshkichirini yaxshi ko‘raman, — dedi Bahodir.

— Hazillashyaptilar, darrov palovni qayerdan oladilar? — dedi yana birovi.

Salim aka g‘alati qilib jilmaydi:

— To‘g‘ri, hali tayyor emas. Lekin palov yeyishlaring aniq.

Salim aka bolalarni sabzavot ekilgan yeriga olib bordi.

— Ko‘rdinglarmi? Sabzi, piyozlarni o‘t bosib ketdi. Kattalar g‘o‘za parvarishi bilan band. Qani, azamatlar, bir o‘toq qilib tashlanglar-chi! Sabzisiz palov, piyozdog‘siz moshkichiri bo‘lmaydi. Bu yerni ertagacha o‘toq qilib bo‘lsanglar, indinga pomidor orasidagi o‘tlarga ham hujum boshlab yuborasizlar.

Bolalar Salim akaning hazilidan xafa bo‘lishmadi. Ertasi kuni darsdan so‘ng har kim sinfidagi bolalarni polizga boshlab keldi. Ikki kunda o‘tdan nishona ham qolmadi.

Yoz kelib, hosil yetildi. Bolalar Salim aka aytgandek, sersabzi palovni ham, piyozdog‘li mochkichirini ham, mazali pomidorlarni ham to‘yib-to‘yib yeyishdi.

(Mahmud Murodov)

g‘o‘za — хлопчатник

hazil qilmoq — шутить

parvarishlamoq — ухаживать

Uyga vazifa. Hikoyani so‘zlab bering.

NAVRO‘Z UDUMLARI

(Yaqin va uzoq o‘tgan zamon fe’llari, ularning tuslanishi va bo‘lishsiz shakllari)

1 - dars



1-topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va tayanch so‘zlar ishtirokida suratlarni tasvirlab bering.


Tayanch so‘zlar: chavandozlar, bug‘doy, lolazor, bulutlar, qizlar, milliy liboslar.

1-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalarga e‘tibor bering

Navro‘z

Sharq xalqlarida Navro‘z yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Navro‘z so‘zi «**yangi kun**» degan ma‘noni bildiradi. Har yili **21-mart**da tun bilan kun tenglashadi. Shu kundan boshlab kunlar uzayib, tunlar qisqara boshlaydi. Kunlar isib, bahor o‘z o‘rnini to‘liq egallaydi. Dehqonlar va bog‘bonlar dala

va bog'larda ekin ekish va daraxtlarni parvarish qilishni boshlab yuboradilar. Butun tabiat qaytadan uyg'onadi va yangi hayot boshlanadi. Shuning uchun Sharq xalqlari Navro'zni **bahor va mehnat bayrami** sifatida nishonlaydilar.



2-mashq. Berilgan fe'llardan o'tgan zamonda aniq bajarilgan harakat shaklini hosil qiling va tustang.

O'ylamoq, tayyorlamoq, bajarmoq, yozmoq, tushunmoq.

3-mashq. Matnlarni o'qing. Gaplardagi bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz shaklda, bo'lishsiz fe'llarni esa bo'lishli shaklda yozing.

Aziza darsga yaxshi tayyorlanib keldi, shuning uchun savollarga yaxshi javob berdi. O'qituvchimiz yaxshi baho qo'ydilar. Dadasi undan hafa bo'lmadi.

Odiljon kechqurun kompyuterda o'yin o'ynadi. Uy vazifalarini tayyorlamadi. O'qituvchimizning savollariga yaxshi javob bermadi va yaxshi baho olmadi. Dadasi ham uni maqtamadi.

4-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni o'tgan zamonda aniq bajarilgan shaklda yozing.

Biz Navro'zda daraxtlarni (*oqlamoq*), keksalarni (borib ko'rmoq), ko'cha-hovlilarni (*tozalamoq*). Uyda Navro'z taomlarini (*pishirmoq*). Bayram tantanalari, sport musobaqalarida (qatnashmoq). Ko'chatlar (*ekmoq*), ariqlarni (*tozalamoq*). Navro'zga atab she'r-qo'shiqlar (*o'rganmoq*).



Adabiy o'qish

Navro'z udumlari

Sharq xalqlarida Navro'z bilan bog'liq juda ko'p udumlar bor. Navro'z kuni odamlar ota-onasi, yaqin qarindoshlari bilan diydorlashganlar. Qadimdan Navro'z kunlarida ko'chalar, maydonlar, hovlilar, ariqlar tozalanadi, hovli-bog'lar tartibga keltiriladi. Mahallalarda, korxonalarda, maktablarda umumxalq hashari o'tkaziladi. Navro'z kunlarida yoshlar qir-adirlarga chiqadilar, gullar, lolalar, gilyohlar terib qaytadilar. Navro'z udumlaridan yana biri Navro'z kunlarida pishiriladigan taomlardir. Sumalak, halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara kabilar Navro'z taomlari hisoblanadi.

bog'liq — связанный

atrof — вокруг

diydorlashmoq — встречаться

udum — обычай

tartibga keltirmoq — навести порядок

Uyga vazifa. Berilgan savollarga javob yozing.


1. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qanday xalq o‘yinlarini bilasiz?
2. Qaysi xalq o‘yinlarini sevib o‘ynaysiz?


2 - dars

2-topshiriq. Guruhlarga bo‘lining va berilgan rasmlar asosida har bir guruh bittadan kichik matn tuzing.



Uzoq o‘tgan zamon fe‘li harakatning nutq so‘zlanayotgan paytdan ancha oldin bajarilganini bildiradi. Bu zamon shakli asosga **-gan** qo‘shimchasi yoki uning yonidan **edi** to‘liqsiz fe‘lini keltirish bilan hosil qilinadi. Uzoq o‘tgan zamon fe‘llarining tuslanishi





5-mashq. Fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakllarida tustlang.

Eslamoq, hurmat qilmoq, suhbatlashmoq, gapirmoq.

6-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni uzoq o'tgan zamon shakli bilan almashtirib yozing.

Namuna: Bu voqea ancha oldin sodir bo'ldi.

— Bu voqea ancha oldin sodir bo'lgan edi.

1. O'tgan yili bobomlar 80 yoshga to'ldilar.
2. Bobomlar bizga o'z xotiralarini so'zlab berdilar.
3. Xotira va qadrlash kuni bobomni ko'rgani do'stlari kelishdi.
4. O'shanda bobomdek bo'laman deb orzu qildim.

7-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qo'yib matnni ko'chiring.

Navro'z ... (*yangi yil, eski yil*) demakdir. Navro'z bayrami ... (*1 kun, 3 kun, 1 oy*) davom etadi. Bayramdan oldin ... (*birinchi, ikkinchi*) ko'chalar, uylar tozalanadi. Shahar va qishloqlarda ... (*bir marta, uch marta, ko'p marta*) hasharlar o'tkaziladi. Bayram ... (*birinchi, ikkinchi, oxirida*) Alisher Navoiy nomidagi

Milliy bog‘dan boshlanadi. So‘ngra ... (*uch kun, bir necha kun,*) barcha viloyatlarda xalq sayllari davom etadi. Bayram kunlari ... (*sumalak, osh, ko‘k somsa*) kabi Navro‘z taomlari pishiriladi.



Adabiy o‘qish

Navro‘z bayrami

Navro‘z O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy bayrami. Navro‘z bayramida xalq sayllari uyushtirilgan. Yangi ungan ko‘katlardan tansiq taomlar pishirilgan. Ba‘zi ekinlarni ekish boshlangan. Navro‘zdan bir necha kun oldin tayyorgarlik ishlari boshlangan. Bug‘doyni undirib, uning maysasidan sumalak tayyorlangan, ko‘kat chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar pishirilgan. Otchopar, uloq, kurash singari xalq o‘yinlari, sayllar o‘tkazilgan.

Hozir O‘zbekistonda Navro‘z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishionlanadi. 21-mart dam olish kuni deb e‘lon qilingan. Har yili shu kuni respublikamizning hamma viloyatlarida bayram sayllari tashkil qilanadi.

Navro‘z kunlari mehnat faxriylari, keksalarni qutlab, sovg‘a-salomlar ulashiladi.

(“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”dan)

Uyga vazifa. Navro‘z bayramini siz qanday o‘tkazasiz? So‘zlab bering.

3 - dars


8-mashq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Qiziqarli suhbat

Men bahor taomlarini yoqtiraman. Ular darmondorilarga boy ekanligini bilib oldim. Bu taomlar ichidan sumalak tayyorlash jarayonini boshidan oxirigacha kuzatmaganman. Sumalak tarixini hech kimdan eshitgan emasman. Aytishlaricha, mahallamizdagi Aziza xola sumalak tarixi haqidagi ma'lumotlarni bilar ekanlar. Biz do'stim bilan birga Aziza xolanikiga bordik. Men avvallari bu ayol bilan yaqindan gaplashmagan edim. Suhbat davomida Aziza xoladan: «Siz bu ma'lumotni qaysi kitobdan o'qigansiz, deb so'radim. Ular mening savolimga kulib: «Men bularni buvimdan eshitganman», — deb javob qaytardilar.



Uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli **-ma** qo'shimchasini yoki **emas** to'liqsiz fe'lini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *Biz bu voqealarni eshitmaganmiz. Biz bu voqealarni eshitmagan edik.*



9-mashq. Fe'llarni uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shaklida qo'llang.

Ko'rmoq, bormoq, gaplashmoq, bo'lmoq.

10-mashq. Nuqtalar o'rniga uzoq o'tgan zamon fe'llarining bo'lishli va bo'lishsiz shakllaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. «Men hech qachon hayotimda otamga ...», deya xotirlaydi bobom. 2. Navro'z bayrami kuni qariyalar holidan 3. Onam yopgan ko'k somsaning ta'mini hali ham ..., deydilar buvim. 4. Biz doimo kitobga ..., uni o'qishdan ..., deydilar ustozimiz. 5. Men bu voqeani o'z ko'zim bilan

Foydalanish uchun: baqirmoq, xabar olmoq, esdan chiqarmoq, mehr qo'ymoq, charchamoq, ko'rmoq.

3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Navro'z tilaklari

Tomga qo'ngan sumalak,
Erib bu kun suv bo'lsin.
Qizlar taqib jamalak,
Yanada suluv bo'lsin...
Atrof to'lib maysaga,
Gulzor-u eram bo'lsin.
Qir-adirda lolazor,
Qirmizi gilam bo'lsin...
Yayrasin yosh-u qari,
Tilaklari yor bo'lsin.
Navro'z kabi elimning,
Baxti ustuvor bo'lsin...

(Shohida Sultonova)



Adabiy o'qish

Uyg'onish

Ko'k yuzini qoplagan bulutlar siyraklashib, yilt etib quyosh chiqdi. Tepalikda turgan qizaloq zavqqa to'lib, pastga yugurdi.

— Navro'z kelyapti!

— Voy, ana gul! — qichqirib yubordi qizcha boychechaklarni ko'rib. — Bu gullar qanday ataladi?

— Bular bahor elchilari boychechaklar.

— Dada, bu yerda nega lolalar yo'q?

— Bu yerda ochilgan lolalarni odamlar terib ketishgan.

— Endi sira ham chiqmaydimi?

— Lolalar endi odamlar chiqa olmaydigan tog' cho'qqilaridagina qolgan.

Qizaloq ma'yuslik bilan tog' cho'qqilariga qaradi. Otasi dedi:

— Qara, qizim, majnuntol barg chiqaribdi. Yur, shoxlaridan olamiz. Ayang sochbarg qilib beradi.

— Men sochbarg taqmayman. Keyin tollar ham o'smay qo'yadi. Dada, endi tog'ga qachon kelamiz?

— Navro'zdan keyin kelamiz.

— O'shanda cho'qqiga ham chiqamizmi?

— Chiqamiz, qizim, chiqamiz.

— Men o'shanda odamlarga lola terdirmayman, — dedi qizaloq. — Bo'lmasa, u yerda ham lolalar qolmaydi.

(Matluba Qosimova)

siyrak — редкий

boychechak — подснежник

tepalik — вершина

majnuntol — плакучая ива

Uyga vazifa. Hikoyaga munosabatingizni bildiring.


BUYUK ASTRONOM

O'tgan zamon davom fe'li, uning tuslanishi,
va bo'lishsiz shakllari)

1 - dars



Mirzo Ulug'bek haykali



Ulug'bek rasadxonasi

1-topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar va tasvirlar asosida Mirzo Ulug'bekka ta'rif bering.

Salobatli, hukmdor, odil, dono, aqlli, o'tkir zehqli, buyuk olim.

1-mashq. Matni o'qing. Ajratib yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Buyuk astronom

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek bolalik davrida bobosi Amir Temur bilan ko'p mamlakat va shaharlarga **borar edi**. U hamma narsaga **qiziqar**, olgan taassurotlari asosida rasmlar ham **chizar**

edi. Ulug‘bek o‘zi hukmdor bo‘lgandan so‘ng Samarqandni ilm markaziga aylantirib, hatto rasadxona qurdirdi. U bu yerda yulduzlarning harakatini **kuzatar edi**. Ulug‘bek 1018 ta yulduzni o‘rganib, «Zichi Kuragoniy» jadvalini tuzgan. Hozir koinotdagi yulduzlardan biri Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

taassurot — впечатление koinot — вселенная
 hukmdor — повелитель aylantirmoq — превратить
 ilm markazi — научный центр



O‘tgan zamon davom fe‘llari harakatning o‘tgan zamonda davom etgani yoki bir necha bor takror sodir bo‘lganini bildiradi va fe‘llarga **-r(-ar)** qo‘shimchasi hamda *edi* fe‘lini qo‘shish orqali hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko‘plik
I sh.	o‘qir (ko‘rar) edim	o‘qir (ko‘rar) edik
II sh.	o‘qir (ko‘rar) eding	o‘qir (ko‘rar) edingiz
III sh.	o‘qir (ko‘rar) edi	o‘qir (ko‘rar) edilar

2-mashq. Berilgan fe‘llarni o‘tgan zamon davom fe‘li shaklida yozing.

Kuzatmoq, o‘qimoq, qiziqmoq, qurdirmoq, yaratmoq, o‘rganmoq, shug‘ullanmoq, ko‘rinmoq.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan fe‘llarning mosini qo‘yib ko‘chiring.

Olimlar yulduzlarga qadim zamonlardan Ular yulduzlarning joylashgan o'rniga qarab yulduzlar xaritalarini Bunday xaritalarda har bir yulduz turkumi va yirik yulduzlarning nomi Odamlar Qutb yulduzi, Zuhro yulduzi, Katta Ayiq va Kichik Ayiq yulduzlar turkumini yaxshi Yo'l boshchilar tunda yulduzlarga qarab Yulduzlar kompas vazifasini ham

Foydalanish uchun: bajarardi, o'tardi, yozilar edi, qiziqardilar, yurar edilar, tuzar edilar, bilar edilar.

4-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li shaklida yozib gaplarni ko'chiring.

1. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek bolaligida yulduzlarni tomosha qilishni (*yaxshi ko'rmoq*). 2. U hukmdorlik qilgan davrida bo'sh vaqtlarini ko'pincha rasadxonada (*o'tkazmoq*). 3. Ulug'bek o'z shogirdlariga dunyoviy ilmlardan (*saboq bermoq*). 4. Juda ko'p ilm toliblari Ulug'bek qurdirgan madrasada (*o'qimoq*). 5. Temuriylar davrida ilm-fanni rivojlantirishga katta (*e'tibor bermoq*).

Uyga vazifa. Matnlardan foydalanib Mirzo Ulug'bek haqida kichik matn tuzing.

2 - dars

2-topshiriq. Suhbat matnini o'qing.

— Siz Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning sadoqatli shogirdi haqida eshitganmisiz?

— Ha. Uning ismi Ali Qushchi. U vaqtining ko'p qismini

Mirzo Ulug‘bek yonida o‘tkazgan. Ustozi bilan tundan tonggacha yulduzlar harakatini kuzatgan.

— Mirzo Ulug‘bekning Ali Qushchiga munosabati haqida yana nimalar bilasiz?

— Ulug‘bek Ali Qushchiga o‘z farzandlaridan ham ortiq e‘tibor bergan. Ilm yo‘lida unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan. Mirzo Ulug‘bek Ali Qushchini “sevimli farzandim” deya ardoqlagan. U bilan hamisha faxrlangan.



Ba‘zan o‘tgan zamon davom fe‘li tarkibidagi **edi** to‘liqsiz fe‘li qisqarib, **-di** shaklida qo‘llanishi ham mumkin. Bunda u fe‘l asosiga qo‘shib yoziladi. Masalan: Uzoqlarda yulduzlar miltillab ko‘rinardi

5-mashq. Matnlarni davom ettiring.

Shahrimiz qadimda Afrosiyob, Marokand deb atalar edi. Afrosiyob qadimgi So‘g‘d davlatining poytaxti hisoblanar edi. Hozirgi Samarqand shahri yaqinida Afrosiyob shahrining qoldiqlari bor

Mirzo Uluq‘bek sohibqiron Amir Temurning sevimli nabirasi bo‘lgan. Mirzo Uluq‘bek doim bobosi bilan birga yurardi. Biroq u urushlarni yoqtirmasdi. Shahzoda ilm-fanga, sirli yulduzlarga juda qiziqar edi. U o‘zi hukmdor bo‘lgandan so‘ng... .

6-mashq. Berilgan gaplardagi fe‘llarni bo‘lishli shaklga aylantirib yozing.

1. Ulug‘bekning Movarounnahrdagi hokimlik davrida Samarqand shahri (gullab-yashnamoq), hunarmandchilik, me‘morchilik,

adabiyot, san'at (ravnaq topmoq). 2. Ulug'bek arab va fors tillarini (mukammal bilmoq), bu esa uning ko'p qo'lyozmalarni o'rganishida (yordam bermoq). 3. Ulug'bek haqida ko'plab badiiy asarlar (yaratmoq), filmlar (suratga olmoq). 4. Ulug'bek ko'p vaqtini saroy kutubxonasida (o'tkazmoq), u, ayniqsa, matematika va astronomiyaga doir qo'lyozmalarga (qiziqmoq). 5. Ulug'bek Samarqanddagi Amir Temur maqbarasiga (dafn etilmoq).



Adabiy o'qish

Ulug' bobomiz

Yosh Ulug'bek xayolin
Sirli ko'k tortar edi.
Boqqan sari savoli,
Hayrati ortar edi.
 Yulduzlar ham yarqirab
 Porlar edi tunlari.
 Yosh yurakni parpirab
 Chorlar edi tunlari.
Yillar o'tdi Ulug'bek
Kuch, ilmga to'lgandi.
Qancha-qancha yulduzlar
Sirini u o'rgandi.
 Olim bo'lib taratdi,
 El shonini jahonga.
 Ulug' bobomiz qadri
 Yetdi bugun osmonga.

(Dilshod Rajab)

hayrat — удивление
chorlamoq — призывать

sirli — таинственный
porlamoq — сиять

Uyga vazifa. She'ni yod oling.

3 - dars



3- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

Muzey xodimi: — Rasadxona uch qavatdan iborat bo'lgan. Hozir faqat ikki qavatni saqlanib qolgan. Rasadxonaning yonida yulduzlar holatini tekshiradigan maxsus yerto'la mavjud bo'lgan. Bu yerda Mirzo Ulug'bek o'z shogirdlari bilan yulduzlar harakatini kuzatar edi. Siz turgan binoda esa kuzatishlar natijalarini tahlil qilishar, ma'lumotlar asosida jadvallar tuzishardi.

Sayyoh: — Mana bu suratda kimlar tasvirlangan?

Muzey xodimi: — Suratda astronom olimlar tasvirlangan. Mirzo Ulug'bek Kopernikning o'ng tomonida turibdi.

Sayyoh: — Mana bu asbob-uskunalar qaysi asrga oid?

Muzey xodimi: — Ular Ulug'bek yashagan davrga mansub. Bu asbob-uskunalardan yulduzlarni kuzatishda foydalanishgan.

Sayyoh: — Mirzo Ulug'bekning nomini abadiylashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

Muzey xodimi: — Vatanimizda uning nomi bilan ataladigan tuman, shaharchalar, universitet, metro bekati, istirohat bog‘i, ko‘chalar bor. YUNESKONing qarori bilan hatto bitta yulduzga Ulug‘bek nomi berilgan.

abadiylashtirish — увековечить
 asbob-uskuna — прибор
 tahlil qilmoq — анализировать

yerto‘la — подвал
 qaror — решение



O‘tgan zamon davom fe‘lining bo‘lishsiz shakli **-ma** qo‘shimchasi orqali hosil qilinadi. Bunda **r** tovushi **s** tovushiga almashadi:

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	borm as edim	borm as edik
II shaxs	borm as eding	borm as edingiz
III shaxs	borm as edi	borm as edilar

O‘tgan zamon davom fe‘lining qisqargan shakli esa **-masdi** qo‘shimchasini orqali hosil qilinadi. Masalan: *Bulutli osmonda yulduzlar ko‘rin**masdi**.*

7-mashq. Berilgan fe‘llarni bo‘lishsiz shaklga aylantiring.

Kelgan, charchagan edim, borgandik, tinglagan edingiz, yurgandilar, tushuntirgan edingiz, qiziqgandilar.

8-mashq. Gaplardagi fe‘llarni bo‘lishli shaklga aylantirib yozing.

1. Osmonda bulutlar ko‘rinmagan edi. 2. Biz u paytlar bu to‘garakka qatnashmagan edik. 3. Zebo bolalagida she‘r

yozmagan edi. 4. Bu ko'lda qayiqalar suzmagan edi. 5. Men tabiatning bu mo'jizalariga ishonmagan edim.



Adabiy o'qish

Mirzo Ulug'bek

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394-yilda Sultoniya davrida tug'ilgan. U bolalik davrida bobosi Amir Temur bilan ko'p mamlakat va shaharlarni ko'rgan. Amir Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug'bekning otasi Shohrux qo'lga o'tadi. Shohrux Xurosonda hukmronlik qiladi. Movarounnahrni esa o'g'li Ulug'bekga topshiradi.

Ulug'bek hukmronlik davrida Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda inshootlarining qurilishini tamomladi, ko'plab bog'lar yaratdi. 1417—1420-yillarda ajoyib madrasa qurdirdi. U tarixda Ulug'bek madrasasi deb ataldi. Keyinchalik Samarqandda rasadxona qurdirdi va uni asboblardan ta'minladi.

Ulug'bek o'z davrining buyuk olimi, astronomi, shoiri va faylasufi edi. U rasm, musiqa bilan ham shug'ullangan. Ulug'bek davrida Samarqand ilm markaziga aylangan.

Ulug'bekning «Astronomiya jadvali» asari o'rta asr Sharq astronomiyasining eng mukammal asari hisoblanadi.

rasadxona — обсерватория
mukammal — совершенный

inshoot — сооружение
faylasuf — философ

Uyga vazifa. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

BOBOM XOTIRALARI

(O'tgan zamon hikoya fe'li, uning tuslanishi va bo'lishsiz shakllari)

1 - dars



1-topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

1. Bobongiz bilan nimalar haqida suhbatlashasiz?
2. Bobongiz qaysi kasb egasi bo'lganlar?
3. Bobongizni ko'rgani tez-tez borib turasizmi?

1-mashq. Matni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Bobom xotiralari

Bu voqea urush yillari **sodir bo'lgan edi**. Dadam urushga ketgan, biz besh farzand onam va buvim bilan **qolgan edik**. Hovlimizda bir tup katta tut bo'lib, shu tut bizni **boqar edi**. Onam bilan buvim shu tut mevalaridan qoqi, shinni tayyorlab, uni bozorda yeguliklarga almashtirib kelar edilar. Biroq bir kuni

o'qishdan kelsam, tutimiz **kesib ketilgan**, onam bilan buvim **yig'lab o'tirgan ekanlar**. Tutdan ayrilish oilamiz boshiga katta musibatlar keltirdi. O'sha yili kenja ukam ochlikdan vafot etdi. Bu g'amni ko'tarolmay onam ham **yotib qolgandilar**. Har yili tut pishig'ida shu voqealar yodingma tushadi.

sodir bolmoq — происходить ochlik — голод
yegulik — съедобное



-b (-ib) qo'shimchali fe'llar o'tgan zamonda bajarilgan harakat-holatning kimdandir eshitilganini bildiradi. Bunday fe'llar o'tgan zamon hikoya fe'li deb ataladi va quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	boribman	boribmiz
II shaxs	boribsan	boribsiz
III shaxs	boribdi	boribdilar

2-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni o'tgan zamon hikoya shakli bilan almashtirib yozing.

1. Bobom o'rtoqlari bilan ustozlarini ko'rgani borishdi.
2. Bobom bo'lib o'tgan voqeadan juda ta'sirlangan edi. 3. Men ham bobom aytgan rivoyatga ishonдим. 4. Nodir mo'jiza sodir bo'lishini uzoq kutgandi. 5. Bobosining yuzlaridagi ajinlarga boqib, o'sha hikoyani esladi.

3-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Botir bobo buni otasidan (eshitibman, eshitibsan, eshitibdi). 2. Nabirasining g'alabasidan bobosi (xursand bo'ldim, xursand bo'lding, xursand bo'ldi). 3. Zumrad bobosi yotgan uyning eshik va derazalarini tezda (ochibman, ochibsan, ochibdi). 4. Dehqon bug'doy ekib, undan mo'l-hosil (olibman, olibsan, olibdi). 5. Men tushimda ertak qahramoniga (aylanibman, aylanibsan, aylanibdi).

Uyga vazifa. *Gapirib bermoq* fe'lini o'tgan zamon hikoya fe'li shaklida tuslab yozing.

2 - dars

4-mashq. Matnni o'qing. Fe'llarning zamonini aniqlang.

Xotira maydonida

O'tgan yili ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib borgan edilar. Hamma yoq top-toza. Gullar ochilgan. Naqshlar bilan bezatilgan ayvonlar. «Xotira kitobi»ni ko'rib qoyil qoldik. Bu



Shahidlar maydoni



Xotira maydoni

kitobda 431 mingdan ortiq o'zbekistonlik jangchilar haqida ma'lumot berilgan. «Xotira kitobi» ikkinchi Jahon urushida halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr qilingan. Bizning baxtimiz, tinchligimiz uchun kurashgan bobolarimizga ta'zim qilamiz.

(«Tong yulduzi» gazetasidan)

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz Xotira maydoniga borganmisiz?
2. U yerda kimlarni ko'rgansiz?
3. Xotira va qadrlash kunida kimlarni borib ko'rgansiz?



O'tgan zamon hikoya fe'lining bo'lishsiz shakli **-b** qo'shimchasidan oldin **-ma** qo'shimchasini qo'shishi orqali hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	bormabman	bormabmiz
II shaxs	bormabsan	bormabsiz
III shaxs	bormabdi	bormabdilar

5-mashq. Matni ko'chiring. O'tgan zamon hikoya fe'llarini aniqlang.

Yaxshilik yerda qolmas

Bir ari suv ustida uchib borardi. U birdan suvga yiqilibdi. Qanotlari ho'l bo'lib ucha olmay qolibdi. Buni bir kabutar ko'ribdi, ariga rahmi kelibdi va darhol cho'p topib, suvga tashlabdi. Bechora ari cho'pni kema qilib, suv balosidan qutulibdi.

Oradan ko'p o'tmabdi. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'libdi. Ari buni ko'rib bolaning qulog'ini chaqibdi. Bola og'riqdan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushlabdi. Kabutar esa vaqtida qochib o'limdan qutulibdi.

(*Abdulla Avloniy*)

3-topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar tuzing.

— ... ?

— O'tgan yili ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib borgan edilar.

— ... ?

— Biz tinchligimiz uchun kurashgan bobolarimiz bilan faxrlanamiz.

— ... ?

— «Xotira kitobi» vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr qilingan.

— ... ?

— «Xotira kitobi»da 431 mingdan ortiq o'zbekistonlik jangchilar haqida ma'lumot berilgan.



Adabiy o'qish

Bobo va nabira

9-may — Xotira va qadrlash kunida ukam Abdulhamid bilan istirohat bog'iga bordik. Abdulhamid arg'imchoq uchgani ketdi. Shu payt yo'lak bo'yidagi o'rindiqda o'tirgan bir otaxonni ko'rib qoldim. Jigarrang kostyumining o'ng ko'ksi orden va medallarga to'lib ketibdi. Bugun bayramga ordenlarini taqib chiqibdilar.

— Beri kel, bolam, hassam tushib ketdi, olib ber, — deb yonlariga chaqirdilar.

- Mana, bobojon, — dedim yonlariga borib.
- Rahmat, o'g'lim. Maktabda o'qiysanmi?
- Ha, bobojon, Toshkentdagi 54- maktabda o'qiyman.
- O'qishlaring yaxshimi?
- Ha, chorak baholarimning hammasi «besh».
- Barakalla, — maqtab qo'yдилar meni.
- Bobojon, urushda bo'lganmisiz?
- Qo'y, o'g'lim, urushdan gapirma, — dedilar otaxon.
- Urush yomon-a? Kinoda ko'rganman.
- Juda yomon. Urush oxirlab qolganda jangga kirib Berlindan urushni tugatib qaytganman, — dedilar og'ir xo'rsinib.
- Nemislar shunaqa yomonmidi?
- Nemislar emas, fashistlar yomon edi.
- Fashistlar kim o'zi? — so'rayman qiziqishim ortib.
- Fashistlarmi, Gitlarga o'xshagan ajdarholar. Boshini kes-sang, yana bosh o'sib chiqadi.
- Ertaklardagi ajdahoga o'xshagan deng. Hozir yo'qmi ular?
- Yo'q. Mabodo qolgan bo'lsa ham, boshini yanchib tashlaymiz. Endi, bor, o'yna.
- Bobojon, sizga muzqaymoq olib kelib beraymi?
- Rahmat, bolam, o'zing yeyaver. Arg'imchoq uchib, o'yna. Ordenli bobo bilan xayrlashar ekanman, kayfiyatim ko'tarilganini his etdim.

(Abdulhay Nosirov)

istirohat bog'i — парк
yo'lak — коридор

arg'imchoq — качели
ajdarho — дракон

Uyga vazifa. Hikoyaga munosabatingizni bildiring.

3 - dars

4-topshiriq. O'qing. Fe'llarning qo'llanishiga e'tibor bering.

Bobom aytgan rivoyat

Do'mbira haqidagi bu rivoyatni menga bobom aytib berganlar. Hisor tog'lari orasida yashagan bir qabilada g'alati kasallik paydo bo'libdi. Kasalning hech qayeri og'rimas, ammo u o'tmishini umuman eslay olmas ekan. Bu kasallikka hech kim davo topolmabdi.

Bir kuni qabila donishmandi g'alati bir tush ko'ribdi. Oppoq soqolli odam unga o'rmonga borishini, u yerda mo'jizaga duch kelishini, o'sha kasallikka chora bo'lishini aytib g'oyib bo'libdi. Donishmand mo'jizani izlab yurgan ekan, qulog'iga qandaydir tovush eshutilibdi. Asta borib qarasa, buloq bo'yidagi toshga yog'och suyab, unga ingichka torlar tortilgan ekan. Chiroyli bir qush yog'ochga qo'nib, tumshug'i bilan torni tishlab qo'yib yuborardi. Bundan yoqimli sado atrofga taralardi. Donishmand oq soqolli odam aytgan mo'jiza shu ekanligini tushunibdi. Uni olib chala boshlabdi. Shunda kasallar uylaridan chiqib, kuyga quloq solibdilar. Ular kuy sehridan sog'ayib borayotganlarini sezibdilar. So'ng ustalar eng pishiq daraxt yog'ochidan shunday asboblarni yasashibdi. Hamma yoqni yoqimli ovozlarni tutib ketibdi. G'oyibdan paydo bo'lgan do'mbira odamlarni asrab qolgan ekan.

do'mbira — музыкальный инструмент

qabila — племя

mo'jiza — чудеса

o'tmish — прошлое

sezmoq — чувствовать



O'tgan zamon hikoya fe'llari ertaklarda, biror voqeani hikoya qilib berishda juda ko'p qo'llanadi.

6-mashq. Matn asosida nuqtalar o'rnini to'ldiring.

Bir qabilada g'alati kasallik Bu dardga hech kim Bir kuni donishmand g'alati bir Donishmandning qulog'iga qandaydir tovush Donishmand torni olib ... Shunda kasallar uylaridan chiqib, kuyga Ustalar eng pishiq daraxt yog'ochidan shunday asboblari Hamma yoqni yoqimli ovozlari

7-mashq. Qavs ichidagi fe'llarni o'tgan zamon hikoya fe'li shaklida yozing.

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Bir kuni otasi bozordan olma olib (kelmoq) va bolalarini sinamoqchi (bo'lmoq). Ularni chaqirib: "Mana, sizlarga olma beraman", dedi. Vali birinchi bo'lib yetib kelib: "Otajon, menga hammasini bering", — dedi. Ali esa ohista: "Menga bitta olma yetadi", — deb javob (qilmoq). Otasi Alining qanoatiga ofarinlar (aytmoq), uni quchog'iga olib peshonasidan (o'pmoq) va ikkita olma (bermoq). Valiga hech narsa (bermoq).

Abdulla Avloniy

Ayting-chi, nima uchun otasi Valiga hech narsa bermadi?



Adabiy o'qish

Soat

Biz ko'pchilikmiz: dadam, onam, men va yana to'rtta ukam ham bor. Onam bilan dadam ishlashadi. Men o'qiyman, ikkita ukam ham o'qiydi. Ikkita kichkina ukam bog'chaga borishadi. Uyimizning har bir xonasida soat bor. Mehmonxonada katta osma soat, boshqa xonalarda kichkina soatlar. Lekin hammamiz vaqtni dadamlardan so'raymiz.

Dadamlarning qo'l soatlari bor. Bu soat buvamlardan qolgan. Buvam urushda halok bo'lganlar. Uyga qora xat bilan shu soat ham kelgan ekan. Dadamning boshqa soatlari ham bor. Lekin uni taqmaydilar, shu soatni taqadilar. Tanish-bilishlar ba'zan:

— Boshqasini taqing, bu eskirib ketibdi-ku, — deyishadi. Shunda dadam:

— Bu oddiy soat emas, dadamlarniki, — deydilar. Yaqinda men kollejga o'qishga kirdim. Shunda dadam soatni qo'llaridan yechib:

— O'g'lim, katta bo'lib qoldingiz. Endi bu soatni siz taqing, — dedilar.

Endi uyda hamma vaqtni mendan so'raydi. Dadamning o'zlari ham vaqtni mendan so'raydilar. Soat juda ham katta, siferblati ham eski, raqamlariga dog' tushgan. Lekin oddiy emas, buvamlarniki...

(O'lmas Umarbekov)

Uyga vazifa. Matnni o'qing. Oxirgi abzasdagi gaplarning mazmunini tushuntiring.

ONA SHAHRIM

(Hozirgi zamon fe'llari, ularning tuslanishi va qo'llanishi)

1 - dars



1-topshiriq. Berilgan rasmlarni kuzating va tayanch soʻzlar asosida gaplar tuzing.

Tayanch soʻzlar: muhtasham va zamonaviy binolar, keng koʻchalar, haykal, qadimiy obidalar, chiroyli bekatlar.

1-mashq. Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga eʼtibor bering.

Ona shahrim

Men Oʻzbekistonning eng koʻrkam shaharlaridan birida

yashayman. Shahrimizning ko‘chalari keng, fayzli. Keyingi yillarda shahrimizda obodonlashtirish ishlariga juda katta **e’tibor qaratilyapti**. Yangi zamonaviy binolar, muhtasham saroylar, keng yo‘llar, ko‘priklar **qurilyapti**. Shahrimizdagi qadimiy obidalar qayta **ta’mirlanmoqda**. Ona shahrimiz kundan kunga **go‘zallashib bormoqda**. Yangi-yangi xiyobonlar, sayilgohlar **barpo etilyapti**.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi shahar (qishloq, tuman markazi) da yashaysiz?
2. Sizing shahringiz (qishlog‘ingiz)da qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Siz ona shahringiz (qishlog‘ingiz)ning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?



Hozirgi zamon fe’llari nutq so‘zlanayotgan paytda sodir bo‘layotgan ish-harakatni ibildiradi. Ular **-moqda** qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

	birlik	ko‘plik
I shaxs	<i>qurmoqdaman</i>	<i>qurmoqdamiz</i>
II shaxs	<i>qurmoqdasan</i>	<i>qurmoqdasiz</i>
III shaxs	<i>qurmoqda</i>	<i>qurmoqdalar</i>

2-mashq. Berilgan fe’llarni hozirgi zamon shakllarida tuslang.

Ko‘rmoq, tomosha qilmoq, barpo etmoq, tushuntirmoq.

3- mashq. Berilgan soʻzlarni oʻzaro bogʻlab gaplar tuzing. Feʼllarni hozirgi zamonda qoʻllang.

1. Biz, juda, oʻz, shahar, yaxshi koʻrmoq.
2. Ona, va, shahar, obod, yildan yilga, goʻzal, boʻlmoq.
3. Hozir, shahar, yangi, maktab, binosi, qurilmoq.
4. Shahar, turar joy, zamonaviy, qurilmoq, juda koʻp.
5. Ona, men, faxrlanmoq, shahar.

3-topshiriq. Sheʼrni oʻqing va savollarga javob bering.

Halima va Salima

Kim ovqatni pishiradi?

Chaqqon qizim Halima.

Kim ovqatni tushiradi?

Yalqov qizim Salima.

Kim erta tong turadi?

Kamtar qizim Halima.

Kim uyquni uradi?

Yalqov qizim Salima.

Besh olar qator-qator,

Tirishqoq qiz Halima.



Sinfni ortga tortar,
Johil qizim Salima.
Rahmat senga, Halima.
Uyat senga, Salima.

(Rauf Tolib)



Uyga vazifa. Savollarga javob yozing.

1. Halima qanday qiz? Salima-chi?
2. Uyingizda kim nima bilan shug'ullanadi?

2 - dars

4-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

— Bu qanday bino?

— Bu yangi sport majmuasi.

— Avval kelganimda bu yerda hech qanday bino yo'q edi.

Shahringiz juda o'zgarib ketibdi.

— Ha, shahrimizda bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

— Bizning shahrimizda ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda.



Hozirgi zamon fe'llarining **-moqda** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadigan shakli asosan kitobiy uslubda ishlatiladi.

5-topshiriq. Shahringizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida o'zaro suhbatlashing.

Namuna:

— Shahringizning bosh maydonida qanday o'zgarishlar bo'lmoqda?

— Shahrimizning bosh maydoni eng obod joyga aylanmoqda. U yerga yangi favvoralar qurilmoqda...

4-mashq. Nuqtalar o'rniga foydalanish uchun berilgan fe'l shakllaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

Mart oyi... Kunlar Bahor qushlari ham.... Dalalarda, bog'larda bahorgi ishlar Sinfimiz o'quvchilari turli xil daraxt ko'chatlari.... Ustozimiz ko'chatlarni o'tqazishni..... Biz ko'chatlarni maktabimiz bog'iga.... Ko'p vaqt o'tmay daraxtlar yashil barglar Biz ularni parvarish qilishga....

Foydalanish uchun: o'tqazmoq, kelmoq, kirishmoq, uchib kelmoq, ko'rsatib turmoq, olib kelmoq, chiqarmoq, isimoq, boshlanmoq.

5-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni mos zamon shakliga qo'yib, matnni ko'chiring.

Olmaliq yangi qurilgan shaharlardan biridir. U hozir respublikamizning katta sanoat shahriga (aylanmoq). Olmaliq — rangli metallar koni. U yerdan mis, ruh, qo'rg'oshin va boshqa metallar (qazib olinmoq). Shaharda bir qancha sanoat korxonalari bor. Katta elektrostansiya, ohak va sement zavodlari, duradgorlik fabrikalari (faoliyat yuritmoq). Olmaliqda zamonaviy akademik litseylar, kollejlar, maktablar, kutubxona, kinoteatrlar bor. Shahar kundan kunga (obod bo'lmoq).

6-topshiriq. Guruhlarga bo'lining va «Kim ko'p biladi?» o'yinini tashkil qiling. O'yin topshirig'iga ko'ra har bir guruh o'z shahri (qishlog'i) dagi tarixiy joylar haqida ma'lumotlar berishi kerak.



Adabiy o'qish

Toshkent

Hur shahrimsan,
Nur shahrimsan.
Odamlar daryo – toshqin.
U ko'chadan,
Bu ko'chadan.
Chiqishar ishga – shoshqin.
Shahri azim,
Senga ta'zim.
Sen onaday – muqaddas.
Ko'rgan odam,
Butun olam
Mehri senga – chambarchas.
(Obid Rasul)

Uyga vazifa: She'ni yod oling.

3 - dars

7-topshiriq. Berilgan javoblarga mos savollar tuzing.

- ... ?
- Shahrimizda maktablar, akademik litseylar va kollejlarni qurilmoqda.

— ... ?

— Yoshlar uchun madaniyat saroylari, sport majmualari ishga tushirilmoqda.

— ... ?

— Dam olish maskanlari va oromgohlar ham qurilmoqda.

— ... ?

— Yo'l chetlariga manzarali daraxtlar va chiroyli gullar ekilmoqda.

6-mashq. O'ng tomondagi fe'llardan chap tomondagi fe'llarning sinonimlarini topib yozing.

istamoq

quvonmoq

ko'nikmoq

solishtirmoq

kuchaymoq

titramoq

qaltiramoq, sevinmoq, taqqoslamoq,
shodlanmoq, zo'raymoq, xohlamoq,
qiyoslamoq, odatlanmoq, orzu qilmoq,
xursand bo'lmoq, tilamoq.



Adabiy o'qish

Ustunlar

Bolalar muallimalari bilan birga shahar aylangani chiqishdi. Katta-katta imoratlar, favvoralar, turli-tuman do'konlarni tomosha qilishdi. Bitta ajib imorat oldida ular ancha to'xtab qolishdi. Bino milliy naqshlar bilan bezatilgan. Uni bir necha baquvvat, naqshinkor ustunlar ko'tarib turardi. Bolalar imorat atrofini gir aylanib chiqishdi. Uning ustunlari anchagina ekan.

— Ustoz, — so‘rab qoldi bolalardan biri, — bitta ustuni kam bo‘lsa bo‘lmaydimi?

— Bo‘lmaydi, chunki har bir ustunning o‘z vazifasi bor.

Shu payt Nilufar ustoziga yaqinroq bordi-da:

— Ustoz, biz ham ustunlarmiz-a? — dedi o‘ylanib. Muallima avvaliga qizchani nima demoqchi ekanini tushuna olmadi. Keyin xursand bo‘lib ketdi.

— To‘g‘ri aytding, Nilufar. Kelajakda har bittangiz o‘z oilangizning ustuni, qolaversa, O‘zbekistonimizni yelkasida ko‘tarib turadigan ustunchalari bo‘lasiz.

Nilufarning gapi boshqa bolalarning fikrlarini ham uyg‘otib yubordi...

— Mard bolalar O‘zbekistonga ustun bo‘ladi-a, ustoz?

— Albatta!

— Mardlar Vatanni qo‘riqlaydi-a?

— Albatta!

— Nozima ham ustun bo‘ladimi?

— Ha.

— Aziz-chi?

— U ham.

— Voy-bu, unda ustunlar rosa ko‘p bo‘larkan-da?

— Vatanimizning ustunlari ko‘p bo‘ladi, yuzlab, minglab, millionlab. Ular bir qudratli kuch bo‘lib, O‘zbekistonni e‘zozlab qo‘llarida ko‘tarishadi. Uni asrashadi, avaylashadi. Obro‘si va sharafini himoya qilishadi.

(Yashar Xondamir)

Uyga vazifa. Hikoyaga o‘z munosabatingizni bildiring.

DAM OLIISH REJASI

(Kelasi zamon fe'llari, ularning tuslanishi,
va qo'llanishi)

1 - dars



1-mashq. Matni o'qing va rasm asosida matni to'ldiring.

Dam olish kunida

Bugun yakshanba. Dam olish kuni. Ertalab oilamiz a'zolari bilan birga o'tirib **nonushta qilamiz**. Onam dasturxonga issiq non, qaymoq va mevalarni **qo'yadilar**. Har birimizga quymoq **pishirib keladilar**. Nonushtadan so'ng ukam bilan men uy ishlariga **qarashamiz**. Buvam bilan buvim o'z xonalariga kirib **dam olishadi**. Men uylarni **yig'ishtiraman**. Singlim hovli, ko'chalarni **supuradi**. So'ng ikkalamiz kitob **o'qiymiz**, dars **tayyorlaymiz**. Barcha ishlarni bajarib bo'lgach, ko'chaga chiqib biroz **o'ynaymiz**.

1-topshiriq. Savollarga javob bering va suhbatni davom ettiring.

1. Oilangizda dam olish kuni qanday o'tadi?
2. Dam olish kuni kim nima bilan shug'ullanadi?
3. Onangiz qanday taomlar tayyorlaydilar?
4. Siz qanday ishlarni bajarasiz?
5. Madaniy hordiq deganda nimani tushunasiz?

2-mashq. Gaplarni o'qing va ona tilingizga tarjima qiling. Kelasi zamon fe'llarining ma'nolari va ifodalanishini bir-biriga qiyoslang.

1. Bu yil kuz yaxshi keladi. 2. Maktabimizdagi shaxmat musobaqasida Mirg'ani birinchilikni olar. 3. Sinfimizning futbol jamoasi bu o'yinda ham g'alaba qozonadilar. 4. Ertaga yomg'ir yog'mas. 5. Jamoamiz ertaga birinchilikni olar. 6. Ertaga mehmonlar kelmas. 7. Majlisda Ahmedov gapirar. 8. Dam olish kuni baliq oviga borarmiz. 9. Maktabni bitirib, universitetga o'qishga kirarman.

3-mashq. Savollarga yozma javob bering. Javoblaringizdagi fe'llarning zamon shakillarining ma'nosini tushuntiring.

1. Siz o'tgan dam olish kunida qayerda dam oldingiz? Keyingi yakshanbada qayerga bormoqchisiz? Balki Xotira maydoniga borarsiz?

2. Siz qaysi o'zbek yozuvchilarining badiiy asarlarini o'qigansiz? Hozir qaysi asarlarni o'qiyapsiz? Yana qaysi kitoblarni o'qimoqchisiz? Balki she'rlar ham yod olgandirsiz?

3. Qishki ta'til kunlarida nimalar bilan shug'ullandingiz? "O'zbek tili" fanidan qaysi mavzularni mustaqil o'qimoqchisiz?

4. Balki kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lish uchun qanday yo'l tutmoqchisiz?

4-mashq. "Kecha, bugun va ertaga" sarlavhasi ostida bajargan, bajarayotgan va bajarmoqchi bo'lgan ishlaringiz haqida yozing. Fe'llarning turli zamon shakllarini qo'llashga harakat qiling.



Kelasi zamon fe'li unli tovushdan so'ng **-y**, undosh tovushdan so'ng **-a** qo'shimchalarini qo'shish yordamida hosil qilinadi va quyidagicha tuslanadi:

Birlik

Ko'plik

I sh. *o'qiyman, yozaman*

o'qiyimiz, yozamiz

II sh. *o'qiysan, yozasan*

o'qiysiz, yozasiz

III sh. *o'qiydi, yozadi*

o'qiydilar, yozadi (-lar)

5-mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni kelasi zamon shaklida yozing.

Uy-hovlilarni (supurmoq), gullarga suv (quymoq), uylarni (yig'ishtirmoq), shirin taomlar (pishirmoq), bobom bilan buvam (dam olmoq), dadam bilan onam bizdan (xursand bo'lmoq), oilamiz bilan teatrga (bormoq).

6-mashq. Matnni o'qing. Fe'llarning zamon shaklini aniqlang.

Saida va Umida juda inoq. Ular bir maktabda o'qiydilar, birga dars tayyorlaydilar. Birgalikda yosh havaskorlar to'garagiga qatnashadilar. Bugun dam olish kuni. Biroq ikkala dugona ko'chaga o'ynagani chiqishgani yo'q. Ular uyda «Tovus» raqsini o'rganishyapti. Yaqinda maktabda o'tkaziladigan tadbirda shu raqs bilan ishtirok etishmoqchi.

2-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

Bobur: — Nozima, dam olish kuni qayerga bordingiz?

Nozima: — Dam olish kuni men akam va singlim bilan hayvonot bog'iga bordik. Hayvonot bog'idan qaytishda buvam bilan buvimlarni ham ko'rib keldik. Siz qayerda dam oldingiz?

Bobur: — Biz oilamiz bilan dala hovlimizga bordik. Dala hovlidan juda kech qaytdik.

Zilola: — Biz esa dam olish kunini oila a'zolarimiz bilan uyda o'tkazdik. Ertalabki nonushtadan so'ng men onamga, akam dadamga uy ishlarida yordam berdik.

Farhod: — Biznikiga esa qishloqdan dadamning do'stlari mehmonga kelishdi. Ularning men tengi o'g'illari bor ekan. Men u bilan do'stlashib oldim.

Uyga vazifa. Dam olish kunida nimalar bilan shug'ullanishingiz haqida yozing.

2 - dars

7-mashq. Suratlar o'rniga so'zlar qo'yib matnni o'qing.

Poytaxtimizdagi hayvonot bog'i bolalarning eng yaxshi

dam olish maskani. U yerga borsangiz, katta hovuzda suzib yurgan  va  larni ko'rasiz. Ayniqsa,  va , , , ,  hamda  ni ko'rib zavq olasiz. Baland daraxtda o'tirgan  va , ,  barchani hayratga soladi. Hamma bolalar  va uning bolasini ko'rgani borishadi. Filcha o'zi yosh bo'lsa ham, baribir hamma hayvonlardan kattaligi barchani hayron qoldiradi. Hayvonot bog'idan juda katta taassurotlar bilan qaytasiz.

8-mashq. Berilgan javoblarga mos savollar qo'ying.

- ... ?
- Dam olish kuni biz tarix muzeyiga boramiz.
- ... ?
- Ko'rgazma zallarini, turli eksponatlarni ko'ramiz.
- ... ?
- Muzey xodimlaridan qadimgi davrlar haqida qiziqarli ma'lumotlar olamiz.
- ... ?
- Muzeyda ko'rganlarimiz haqida ijodiy ish yozamiz.

9-mashq. Dam olish kunida quyidagi ishlardan qaysilarini bajarishingizni hozirgi-kelasi zamon shaklida yozing.



- Hovli va ko'chani supurdim.
- Ovqat pishirishga va kir yuvishga yordam berdim.
- Buvam bilan buvimlardan xabar olib keldim.
- Buvimning uylarini yig'ishtirib keldim.
- Ukamga qarab turdim.

3-topshiriq. Maqollarni o'qing va ma]nosini tushuntiring.

Yaxshi dam mehnatga hamdam.

Mehnat — mehnatning tagi rohat.

Mehnat kishini ulug'laydi.

Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli.

Mehnat farog'at chirog'i

farog'at — благосостояние

turmush — здесь: жизнь

rohat — благоуханые

chiroq — свет



Adabiy o'qish

Qizlar

(Hikoya)

Bahor kunlarining birida 6-sinfning qizlari o'zaro gaplashib maktabdan qaytishardi. Shunda Saida o'ртоqlariga qarab dedi:

— Qizlar, kelinglar, yakshanba kuni kino ko'rishga boraylik.

— Yaxshi bo'lardi, — dedi Mohira.

— Ustozimiz Navro'z bayrami arafasida hovli, ko'chalar tozalansa, keksalar holidan xabar olinsa, juda savob bo'ladi, deb aytdilar. Yakshanba kuni mahallamizdagi Badal amaki va Fozila buvinikiga chiqib, uy ishlariga qarashib kelsak, yaxshi bo'lardi, — deb taklif kiritdi Zulxumor.

— E-e, o'zimizning uyda ham ish tiqilib yotibdi. Bir kami birovlarining ishini qilishmidi? — e'tiroz bildirdi qizlardan biri.

Zulxumor bilan Muhayyodan boshqa qizlar kinoga ketishdi. Ikki dugona qo'shni qariyalarning uylari, hovlisi, ko'chalarini supurib qo'yishdi. Qariyalar ulardan juda xursand bo'lishdi.

Ayting-chi, kim to'g'ri ish qildi? Bunday vaziyatda siz nima qilgan bo'lar edingiz?

(«Tong yulduzi» gazetasidan)

Uyga vazifa. Hikoyani so'zlab bering va o'z munosabatingizni bildiring.

LUG‘AT

A

abadiylashtirish — увековечить
 abjir — ловкий
 ahil, inoq — дружный
 ajdarho — дракон
 ajib — изумительный
 aks-sado — эхо
 almashtirmoq — менять
 antiqa — редкостный
 aralashmoq — смешивать
 arzimog — быть равным
 asbob — прибор
 asbob-uskuna — прибор
 asl — подлинный
 asramog — защитить
 atrof — вокруг
 aylantirmoq — превратить
 azaliy — давнишний

B

bag‘ishlanmog — посвященный
 bardamlk — бодрость
 barpo etilmog — создавать
 barq urmog — расцветать
 batafsil — полностью
 behosdan — вдруг
 beshik — колыбель
 binokorlik — профессия
 строителя
 bir qarich yer — пядь земли
 bitkazmog — закончить
 bo‘lakcha — по-другому
 bog‘liq — связанный
 bo‘linma — часть
 borliq — вселенная
 bukchaymog — гнуться

bulog — родник
 bulutsiz — безоблачный
 bundan buyon — далее
 butun — весь

D

daha — квартал
 darvoqe — кстати
 dastxat — подпись
 dastyor — помощник
 davlat — государство
 davr — период, время
 deyarli — почти
 diydorlashmog — встречаться
 dovyurak — смелый
 duradgorchilik — плотник

E

egat — грядка
 ehson — дар

F

faoliyat — деятельность
 farovon — изобильный,
 благоустроенный
 faxrlanish — гордиться
 fikr — мысль
 fikrlash — мыслить
 foydali — полезный
 fusun — очарование

G

galma-gal — поочередно
 ganchkorlik — штукатурное
 дело

М

maftun et(моқ) — очаровывать
 mag'iz — ядро, смысл
 mag'rur — гордый
 maysa — трава
 mahsulotlar — продукты
 majmua — комплекс
 maktab ko'rgan — обученный
 ma'lumot — сведения
 ma'naviyat — духовность
 manzara — вид, картина
 manzil — адрес
 mard, jasur — отважный
 marhabo — добро пожаловать
 ma'rifatparvar — просветитель
 maroq — удовольствие
 marvarid — жемчуг
 maslahat — совет
 mavjud — существующий
 maxsus — специальный
 maydoncha — площадка
 mazmun — содержание
 ma'zur tut(моқ) — извинять
 meros — наследие
 me'yor — мера, норма
 minnatdor — благодарный
 mintaqa — регион
 mohir — умелый
 moslama — прибор
 mo'tabar zot — священная

личность

muammo — проблема
 muassasa — учреждение
 muhayyo — готовый
 muhim — важный
 muhit — среда
 muntazam — постоянный

muqaddas — священный
 murabbiy — воспитатель
 musaffo — чистый
 mutolaa (etmoq) — читать
 me'morchilik — зодчество

N

na (nima) — что-то
 namoyish — демонстрация
 naqd — наличный
 naqqoshlik — живописца
 naqsh — орнамент
 nariroqda — чуть дальше
 navo — музыка
 navqiron — молодой
 nihoyatda, benihoya — очень
 nomma-nom — поимённо
 noyob — антиквар

O

obod bo'lmoq — расцветать
 ochlik — голод
 oid — относящийся
 omil — фактор
 oqim — поток
 oshqozon — желудок
 osma soat — стенные часы
 orastalamoq — чистить
 osma yo'l — канатная дорога

P

pahlavon — богатырь
 pala-partishlik — безалаберность
 palla — время
 parvarishlamoq — ухаживать
 pasaytirmoq — снижать
 pasttekislik — низкая равнина

rog'ona — этап
 poklik — чистота
 poliz ekinlari — огородные
 растения
 porlamoq — сиять
 posbon — защитник
 posbon — стража

Q

qaddi-qomat — телосложение
 qadr — ценность
 qahramonlik — героизм
 qalb — сердце
 qalqon — щит
 qamrab olmoq — охватывать
 qarindosh-urug' — родственник
 qasam — клятва
 qaynamoq — кипеть
 qazimoq — копать
 qiyoslamoq — сравнивать
 qo'rqmoq — бояться
 qo'llamoq — использовать
 qo'lyozma — рукопись
 qon aylanish — кровообращение
 qora xat — похоронка
 qovurmoq — жарить
 qo'zg'atuvchi — возбуждающий
 quchoq — объятие
 qudratli — могучий
 quduq — колодец
 qulay — удобный
 qurilish — строительство
 quyosh tafti — солнечное тепло

R

rangdor — разноцветный
 ravon — ровный

ravshan — ясный
 risoladagiday — правильно
 ro'zg'or — хозяйство
 rozi bo'lmoq — быть довольным
 rejalashtirmoq — планировать

S

sahro, dasht, cho'l — степь
 salbiy — отрицательный
 salkam — почти
 salobatli — видный, авторитетный
 San'at muzeyi — Музей искусств
 sarg'aymoq — желтеть
 sarguzasht — приключение
 savdo rastalari — торговые ряды
 sepib qo'yumoq — сыпать
 sersuv — многоводный
 sevimli — любимый
 sirli — таинственный
 siymo — образ
 siyrak — редкий
 so'lim — красивый
 sodir bo'lmoq — происходить
 sog'inmoq — скучать
 sog'lom turmush tarzi —
 здоровый образ жизни
 so'qmoq yo'l — тропинка
 somoncha shaklida — в соломку
 sopol buyum — глиняный
 предмет
 sovrin — приз
 sukut — молчание
 surunkali — постоянно

T

taassurot — впечатление
 Tabiat muzeyi — Музей природы

tabib — лекарь
 tafakkurli — мыслящий
 tahlil qilmoq — анализировать
 tajriba — эксперимент
 ta'kidlamoq — утвердить
 takomillashtirish — совершен-
 ствовать
 tanbeh — замечание
 tanilmoq — быть знаменитым
 tanish-bilish — знакомый
 tartibga keltirmoq — навести
 порядок

ta'sir — влияние
 tasvir — изображение
 искусство
 tavallud — день рождения
 tayyorlash — готовить
 tekislik — равнина
 teleko'rsatuv — телепередача
 tengsiz — неподобный
 tetik — бодрый
 tezkor — быстрый
 tinch — мирный
 tinimsiz — беспрестанно
 tiniq, tip-tiniq — прозрачный
 tiyrak — чуткий
 to'plam — сборник
 tog' oldi — пригорье
 tong yorishmoq — рассветать
 to'yimli — калорийный
 turar-joy — местожительство
 tuyg'u — чувство
 tuyulmoq — казаться

U

uddalamoq — справляться
 udum — обычай

ulg'aymoq — повзрослеть
 ulgurmoq — успевать
 ulkan — громадный
 ummon — море, океан
 umumxalq — общенародный
 unumli — плодотворный
 urf-odat, udum — обычай
 ushoq — крошка
 usta — мастер
 ustun — колонна
 uyali aloqa — мобильная связь

V

varaqlamoq — перелистать
 vosita — средство

X

xasta — больной
 xayolparast — фантазёр
 xazina — клад
 xiyobon — парк
 xotira — память
 xushbichim — стройный
 xarajat — расход

Y

yangilanish — обновление
 yanglishmoq — ошибаться
 yaqqol — явный
 yarimcho'l — полустепь
 yasatilgan — украшенный
 yosharmoq — молодеть
 yaxlit — целиком
 yegulik — съедобный
 yel — ветерок
 yengilmas — непобедимый

yerto'la — подвал
 yetishtirmoq — выращивать
 yog'ingarchilik — ненастье
 yo'lak — коридор
 yugurish — бег
 yuk — груз
 yuksak — высокий
 yuz o'girmoq — разворачиваться

Z

zahmatkash — страдающий
 zaiflashish — ослабление
 zararli odatlar — вредные привычки
 zardo'zlik — златошвейное дело
 zardo'z — золотошвейка
 ziqna — скупой
 ziravor — специи
 ziyrak — чуткий
 zo'r — сильный

O'

o'lchamoq — мерить
 o'nlik — десятка
 o'pka — лёгкие
 o'ymakorlik — гравировка

G'

g'amgin — грустный
 g'amxo'r — заботливый
 g'o'za — хлопчатник

Sh

sharaf — честь, слава
 sharafli — почётный, славный
 sharoit — условие
 sharshara — водопад
 shift — потолок
 shodon — весёлый

Ch

chala — незаконченный
 chaman — цветник, цветущий луг
 chaqmoq — колоть, раскалывать
 chaqqon, erchil — ловкий
 charxlamoq — точить, оттачивать
 chekmoq — курить
 chiniqmoq — закаляться
 chiniqqan — закалённый
 cho'qqi — вершина
 chora — мера
 chorlamoq — призывать

MUNDARIJA

1– 3-mavzu: OBOD O‘IKAM. (Aniq va mavhum, o‘rin-joy otlari, ularning yasalishi va imlosi)	3
4 – 5-mavzu: KASBLAR. (Kasb-hunar otlari, ularning yasalishi va imlosi)	10
6 – 8-mavzu: KUTUBXONADA. (Shaxs va narsa-buyum otlari, ularning yasalishi va qo‘llanishi).....	16
9 – 11-mavzu: BILIM – XAZINA. (Belgilash va jamlash olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi).....	25
12 – 13-mavzu: TABIAT VA IQLIM. (Bo‘lishsizlik olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi).....	33
14 – 15-mavzu: TABIATNI ASRANG. (Gumon olmoshlari, ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi)	39
16 – 17-mavzu: QISH MANZARASI. (Sanoq va tartib sonlar, ularning yasalishi va imlosi)	44
18 – 19-mavzu: CHIMYON TOG‘LARIDA. (Chama va taqsim sonlar, ularning yasalishi va imlosi).....	50
20 – 22-mavzu:ONA YURT POSBONLARI . (Vaqtini ifodalash. Butun va kasr sonlarning qo‘llanishi)	56
23– 25-mavzu: MUZEYDA. (Jamlovchi sonlarning yasalishi, ularning turlanishi va imlosi)	64
26– 28-mavzu: MASHHUR KISHILAR. (Ravish, uning ma‘no turlari. Maqsad va sabab ravishlari)	72
29 – 30-mavzu: BAHORGI ISHLAR. (Payt va o‘rin ravishlari, ularning qo‘llanishi)	79
31 – 33-mavzu: MILLIY TAOMLAR. (Holat va miqdor-daraja ravishlari, ularning qo‘llanishi).....	86
34 – 36-mavzu: NAVRO‘Z UDUMLARI. (Yaqin va uzoq o‘tgan zamon fe‘llari, ularning tuslanishi va bo‘lishsiz shakllari)	95
37– 39-mavzu: BUYUK ASTRONOM. (Uzoq o‘tgan zamon fe‘li, uning tuslanishi, bo‘lishsiz shakllari)	104
40 – 42-mavzu:BOBOM XOTIRALARI. (O‘tgan zamon davom fe‘li, uning tuslanishi va bo‘lishsizlik shakllari).....	112
43 – 45-mavzu:ONA SHAHRIM. (Hozirgi zamon fe‘llari, ularning tuslanishi va qo‘llanishi)	121
46– 47-mavzu: DAM OLISH REJASI. (Kelasi zamon fe‘llari, ularning tuslanishi va qo‘llanishi)	129
Lug‘at	136

**Xadicha Sobirovna MUXITDINOVA,
Yashnarbek Ibragimovich AVLAKULOV,
Dildora Abrorovna NURIDDINOVA**

O‘zbek tili

***Ta’lim rus tilida olib boriladigan
maktablarning 6- sinfi uchun
darslik***

Muharrir	Akbar Mirzo
Rassom	L. Dabija
Texnik muharrir	U. Kim
Musahhih	J. Nurmatov
Sahifalovchi	H.Xo‘jayeva

Nashriyot lisenziyasi: AI № 185. 10.05.2011. Bosishga ruxsat etildi: 15.05.2017.
Bichimi: 70x90 $\frac{1}{16}$. Kegli: 12,0. Arial garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Nashr bosma tabog‘i: 8,2. Bosma tabog‘i: 9. Nusxasi ...
Buyurtma № ...

Darslik original-maketi «MITTI YULDUZ» MCHJ da nashrga tayyorlandi va egalik huquqi unga tegishlidir. Toshkent sh. Navoiy ko‘chasi, 30- uy.

«YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Yangiyo‘l tumani Samarqand ko‘chasi, 41.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.